2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 269 (1595), 2025-yil 25-dekabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

## DO‘STLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASH ALOHIDA QAYD ETILDI

**24-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon muloqotida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevni tavallud kuni bilan samimiy muborakbod etdi.**

Davlatimiz rahbari Ozarbayjon yetakchisining mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, uni birlashtirish, barqaror taraqqiyotini ta’minlash va xalqaro nufuzini oshirishdagi tarixiy rolini alohida qayd etdi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Ozarbayjon do‘stlik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Joriy Iqtisodiy kooperatsiya yilida birgalikda amalga oshirilgan ishlar unumli bo‘lgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Barcha darajada samarali muloqotlar va almashinuvlar davom etmoqda. O‘zaro tovar ayirboshlash jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda, “yo‘l xaritasi” asosidagi 20 ta ustuvor yo‘nalishdagi loyihalar faol pallaga kirgan.

Tadbirlarga boy madaniy-gumanitar almashinuvlar dasturi amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston va Ozarbayjon rahbarlari xalqaro kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, kelgusidagi tadbirlar rejasini ko‘rib chiqdilar.

**O‘zA**

## SURXONDARYO INVESTITSIYA, AHOLI DAROMADI VA EKSPORT SUR’ATLARI ENG TEZ O‘SADIGAN HUDUDGA AYLANTIRILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 24-dekabr kuni Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.**

Yaratilgan shart-sharoitlar va berilgan imtiyozlar hisobiga so‘nggi sakkiz yilda viloyatga 3 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan, 4 mingta sanoat korxonasi ishga tushirilgan. Sanoat hajmi ikki barobarga oshib, joriy yilda 17,2 trillion so‘mga yetishi kutilmoqda. Charm-poyabzal, zargarlik, qurilish materiallari va farmatsevtika kabi yangi tarmoqlar shakllangan.

Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ham yaxshi natijalarga erishildi. Joriy yilda 126 ming oila kambag‘allikdan chiqarilib, kambag‘allik darajasi 9,3 foizdan 5,6 foizgacha pasayishi kutilmoqda. “To‘palang” suv omboridan quvur tortish orqali Sherobod, Boysun, Bandixon, Muzrabot, Oltinsoy, Angor, Jarqo‘rg‘on va Denov tumanlarida yashovchi 2 million aholining ichimlik suvi muammosi to‘liq hal etilgan.

Shunga qaramay, boy tabiiy resurslar va yetarli infratuzilmasi bo‘la turib, Surxondaryo viloyati sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va turizm sohalarida qator hududlardan ortda qolayotgani qayd etildi. Xususan, viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo viloyatiga nisbatan 1,5 karra, Jizzax viloyatidan 1,8 barobar va Xorazm viloyatidan 2 barobar kam.

Meva-sabzavot eksporti ham Samarqand, Toshkent viloyati, Farg‘ona va Xorazm ko‘rsatkichlaridan past. Viloyatdagi qazilma boyliklar 600 milliard dollarga baholangani, biroq bu salohiyatning hatto 10 foizi ham ishga solinmagani qayd etildi.

Shu munosabat bilan viloyatni investitsiya, ish o‘rni, aholi daromadi va eksport sur’atlari eng tez o‘sadigan hududga aylantirish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda kelgusi yilda viloyatda aniqlangan 114 ta qazilma konlari zaxirasi asosida yangi loyihalarni amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi. Kelgusi yilda ushbu konlarda 3,2 milliard dollarlik 91 ta loyihani boshlash, shundan 2 milliard dollarlik qismini ishga tushirish rejalari belgilandi.

Shuningdek, drayver loyihalar infratuzilmasiga 175 milliard so‘m ajratiladi, buning hisobiga 1 trillion 200 milliard so‘mlik 36 ta loyiha amalga oshirilib, 9 mingta ish o‘rni yaratiladi.

Turizm sohasi muhokama qilinar ekan, viloyatda atigi 47 ta mehmonxona faoliyat yuritayotgani, 4 va 5 yulduzli yoki brend mehmonxonalar mavjud emasligi qayd etildi. Boysun, Sangardak va Omonxona kabi yuqori turistik salohiyatga ega hududlar imkoniyatlarini to‘liq ishga solib, mehmonxonalar sonini ko‘paytirish, yangi turizm yo‘nalishlari va obyektlarini tashkil etish zarurligi qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligida meva-sabzavot ishlab chiqarishning 60 foizi Denov, Sherobod, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on, Muzrabot va Sariosiyo tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelayotgani qayd etildi. Kelgusi yilda Angor, Qiziriq, Termiz, Uzun hamda ixtisoslashgan boshqa tumanlarda ham eksportni ko‘paytirish bo‘yicha aniq loyihalar ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda Surxondaryo viloyati hokimi shu kabi imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha rejalarini taqdimot qildi.

Davlatimiz rahbari hududda yo‘llarni ta’mirlash, uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha ham ko‘rsatmalar berdi.

**O‘zA**

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING RAISI, KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH MILLIY KENGASHI RAISI TANZILA NORBOYEVANING O‘ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATI

**Qadrli vatandoshlar!**

Yangi O‘zbekistonda keyingi yillarda barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur islohotlar oson bo‘lmagan sharoitlarda, jahon miqyosida xalqaro vaziyat murakkablashib, turli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy inqirozlar avj olayotgan bir vaqtda o‘tkazilmoqda.

Bosh maqsad aniq va ravshan — **inson qadrini ulug‘lash, adolatni qaror toptirish va davlatni xalqqa xizmat qiluvchi tizimga aylantirish**dir.

Bu islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan izchil va qat’iy siyosat natijasidir va eng avvalo, mamlakatni ochiq, adolatli va insonparvar davlat sifatida rivojlantirishga qaratilgan.

Bugun “Fuqarolar davlatga emas, davlat fuqarolarga xizmat qilishi shart” tamoyili hayotimizga chuqur singib bormoqda. Davlat xizmatlarini soddalashtirish, raqamlashtirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, qonun ustuvorligini ta’minlash borasida salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Shu bilan birga, biz bir haqiqatni ochiq tan olishimiz kerak: tanlangan yo‘l oson emas. Bugun islohotlar yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri **korrupsiya omili**dir.

Korrupsiya — faqat iqtisodiy zarar emas. Bu adolatga, inson huquqlariga, jamiyatga bo‘lgan ishonchga putur yetkazadigan jinoyatdir. Bugun u butun dunyo uchun global tahdidga aylangan. Shu sababli mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

2017-yilda O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi sohada mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Ilgari bunday yagona va kompleks huquqiy asos mavjud emas edi.

Qonun va uning asosida qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlar korrupsiyaga qarshi kurashishda **tizimli, ochiq va institutsional yondashuvni** shakllantirdi.

Eng muhimi, bu kurash faqat jazo choralari bilan cheklanib qolmay, korrupsiyani keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratildi.

Shu maqsadda muhim institutsional islohotlar amalga oshirildi. **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** tashkil etildi. Parlament palatalarida **tegishli qo‘mitalar**, mahalliy kengashlarda **korrupsiyaga qarshi komissiyalar** faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ayniqsa, **Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi** tashkil etilgani jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirishda muhim qadam bo‘ldi.

Milliy kengash tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlar xolis o‘rganilmoqda, kamchiliklar yuzasidan aniq vazifa va chora-tadbirlar belgilanib, ijrosi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilmoqda.

Ta’kidlash joizki, Milliy kengashning joriy yil 5-mart kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida Prezidentimiz korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha ishlarni baholab, kelgusi vazifalarni belgilab berdi.

Davlat rahbari tomonidan **55 ta aniq tashabbus** ilgari surildi va korrupsiyaga qarshi kurash umummilliy vazifa ekani yana bir bor ta’kidlandi.

Shu asosda qator amaliy ishlar qilindi. Qonunchilik takomillashtirildi, Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi, qator qonun loyihalari ishlab chiqildi.

Ushbu islohotlar korrupsiyaga qarshi kurashishda faqatgina ularning **oqibati bilan emas, balki profilaktik va tizimli yondashuvni** joriy etish imkonini bermoqda.

Parlament, Bosh prokuratura, ichki ishlar, agentlik va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishtirokida hududlarda keng ko‘lamli o‘rganishlar o‘tkazilmoqda.

O‘rganishlar natijalari hududlarda, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan sog‘liqni saqlash hamda ta’lim tarmoqlari bo‘yicha o‘tkazilgan sayyor yig‘ilishlarida tanqidiy ko‘rib chiqilib, muhokama qilinishi yo‘lga qo‘yildi.

O‘z faoliyatida kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan qator mansabdor shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha takliflar berildi.

Bugungi kunda parlament ishchi guruhlari tomonidan joylarda takroriy o‘rganishlar o‘tkazilmoqda. Barcha hududlarda mahalliy kengashlar bilan birgalikda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha muhokamalar o‘tkazilib, tegishli ko‘rsatmalar berilmoqda.

Hududlarda davlat xizmatiga qabul qilish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bozorlar va kommunal sohalarda raqamlashtirish, inson omilini kamaytirish bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy etilmoqda. Natijada sog‘liqni saqlash, ta’lim, qurilish, kommunal, kadastr, bank, energetika sohalarida yuzlab milliard so‘mlik maqsadsiz xarajatlarning oldini olish, adolat va ochiqlikni ta’minlash borasida keng ko‘lamli ish olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbarining qat’iy siyosiy irodasi, korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan qonun hujjatlarining hayotga tatbiq etilishi, qolaversa, tizimli nazorat yo‘lga qo‘yilgani va jamoatchilikning faol ishtiroki bunday natijalarga erishishda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Hurmatli yurtdoshlar!**

Shu bilan birga, oldimizda turgan vazifalar ham yetarli. Qonun hujjatlarining ijrosini so‘zsiz ta’minlash, mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini oshirish, fuqarolarning faol pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlash kelgusi davrdagi eng muhim, ustuvor yo‘nalishlarimizdan hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish — faqat davlat idoralarining ishi emas. Bu — **butun jamiyatning yuksak mas’uliyati.** Nega deganda, biz, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda **adolatli va kuchli** jamiyatni barpo eta olamiz.

Shu sababli bu jarayondan hech kim chetda qolmasligi kerak. Ushbu fikr, tushuncha har bir yurtdoshimizning qalb amriga aylanishi zarur.

Bizning bu boradagi sa’y-harakatlarimizga kuch beruvchi eng asosiy omil xalqning ishonchi va qo‘llab-quvvatlashidir. Xalq bor ekan, islohotlar izchil davom etadi. Adolat bor ekan, taraqqiyot barqaror bo‘ladi.

**Bizning kuchimiz — birdamlikda, haqiqatda va mas’uliyatda.** Ana shu yo‘ldan og‘ishmay borsak, albatta, korrupsiyani yengamiz.

## O‘ZBEKISTON – AQSH: RIVOJLANISH YO‘LIDAGI FAOL HAMKORLIK BARDAVOM



**O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi hamkorlik keyingi yillarda sezilarli jonlandi. Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli tarixiy islohotlar boshlanganiga 7-8 yil bo‘lgan bo‘lsa, mana shu qisqa davr mobaynida AQSH bilan tovar ayirboshlash hajmi 4 barobar oshgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda AQSHning 300 dan ortiq kompaniyasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.**

Munosabat

2030-yilga borib, O‘zbekistonda 18-20 gigavatt qayta tiklanuvchi quvvatlarga ega yangi energetika tizimi yaratiladi, elektr energiyasining yarmidan ko‘pi quyosh va shamol energiyasi hisobidan ishlab chiqariladi. Demoqchimanki, mamlakatimiz yuksak maqsadlarni ko‘zlagan va bu yo‘lda barqaror rivojlanyapti. Tabiiyki, O‘zbekistonning olamshumul taraqqiyoti yo‘lida AQSH bilan ko‘p tomonlama faol hamkorlik katta samara beradi.

Davomi 2-betda

## AHOLINI UMUMMILLIY RO‘YXATGA OLISH



SHUNCHAKI TADBIR EMAS

4

Yil sarhisobi








## IQTISODIY O‘SISHDAN BARQAROR FAROVONLIK SARI

**2025-yil O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotida oddiy hisobot davri emas, balki sifat jihatdan yangi iqtisodiy model shakllanayotgan yil sifatida namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi to‘qqiz yilda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar aynan joriy yilda bir nuqtada tutashib, iqtisodiy o‘sishning yangi manbalari, yangicha mazmuni va falsafasini shakllantirdi.**

Bu yil iqtisodiy jarayonlarni faqat yalpi raqamlar orqali baholash yetarli emas. Asosiy savol shunda: bu o‘sish qayerdan kelyapti, qanday manbalar hisobidan ta’minlanmoqda va u qanchalik barqaror? Ana shu savollarga javob berish 2025-yil iqtisodiyotini anglash kalitidir.

Joriy yilning to‘qqiz oyi yakunlariga ko‘ra, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 7,6 foiz o‘sdi. 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasi 72,8 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yilning shu davriga nisbatan qariyb 22 foiz oshdi. Jumladan, eksport hajmi 30,9 milliard dollarga yetib, 26,2 foiz o‘sishni qayd etdi. Import esa 41,8 milliard dollarga yetib, 18,7 foiz ko‘paydi. Mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasida eng katta ulush Xitoy hissasiga to‘g‘ri keldi (20,1 foiz). Undan keyingi o‘rinlarni Rossiya (16,2 foiz), Qozog‘iston (6 foiz), Turkiya (3,7 foiz) va Koreya Respublikasi (2,2 foiz) egalladi.

Bu ko‘rsatkichlar o‘tgan yilning shu davridagi o‘sishdan sezilarli darajada yuqori. Bir qarashda bu navbatdagi ijobiy statistikadek tuyulishi mumkin. Ammo iqtisodchi nuqtayi nazari bilan qaralganda, ushbu o‘sishning sifat tarkibi ancha muhim. Avvalgi yillarda iqtisodiy o‘sish ko‘p jihatdan ichki iste’molni rag‘batlantirish, budjet xarajatlarini kengaytirish, ayrim tarmoqlarda bir martalik faollik hisobiga ta’minlangan edi. 2025-yilda esa manzara o‘zgardi. O‘sish investitsiya, ishlab chiqarish va xizmatlar sektoridagi barqaror faollik orqali shakllanmoqda. Bu esa iqtisodiy o‘sishni qisqa muddatli emas, balki o‘rta va uzoq muddatli trayektoriyaga chiqarayotgan asosiy omildir. 2025-yil iqtisodiy siyosatining eng muhim yutuqlaridan biri — makroiqtisodiy barqarorlik va yuqori o‘sish o‘rtasida nozik muvozanatga erishilgani.

Joriy yil 1-noyabr holatiga ko‘ra, yillik inflyatsiya darajasi 7,8 foizga tushdi. Bu o‘tgan yildagi 10,2 foiz bilan solishtirganda jiddiy pasayishdir. Muhimi, inflyatsiya pasayishi iqtisodiy faollikning susayishi hisobiga emas, balki pul-kredit siyosati va taklifni kengaytirish choralarining uyg‘unligi orqali ta’minlandi.

Markaziy bank yuritayotgan qat’iy, biroq muvozanatli pul-kredit siyosati inflyatsiya kutilmalarini barqarorlashtirdi, milliy valyutaning ichki barqarorligini mustahkamladi, biznes uchun prognoz qilinadigan muhit yaratdi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda likvidlik yetarli darajada saqlanib, investitsiya va kredit faolligi cheklanmadi. Bu holat ko‘p mamlakatlar uchun mushkul vazifa hisoblangan “o‘sish va barqarorlik dilemmasi” yurtimizda amaliy yechim topayotganini ko‘rsatadi.

Davomi 2-, 3-betlarda

## Munosabat



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va AQSH Prezidenti Donald Trampning telefon orqali muloqoti chog‘ida yetakchilar oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini, shuningdek, O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish istiqbollarini batafsil ko‘rib chiqdi.

# O‘ZBEKISTON – AQSH: RIVOJLANISH YO‘LIDAGI FAOL HAMKORLIK BARDAVOM



**Tursinboy ABDIJABBOROV, “Nuroniy” jamg‘armasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi boshlig‘i**

Boshlanishi 1-betda

Jumladan, O‘zbekiston va AQSH uran, mis, volfram, molibden va grafit qazib olish hamda chuqur qayta ishlashni rivojlantiradi. Ishonchli yetkazib berish zanjirlarini yaratish va AQSHning ilg‘or qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va AQSH Prezidenti Donald Trampning telefon orqali muloqoti chog‘ida yetakchilar oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini, shuningdek, O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish istiqbollarini batafsil ko‘rib chiqdi.

Davlatimiz rahbari Prezident Donald Trampning joriy yilda ichki va tashqi siyosatda erishgan muvaffaqiyatlarini yuksak baholab, uning o‘tkir xalqaro inqirozlar va nizolarni hal etish borasidagi samarali sa’y-harakatlarini alohida qayd etdi.

Dunyoda kechayotgan voqeliklar, o‘zgarishlarning ko‘p yillik kuzatuvchisi, muayyan tajribaga ega nuroniy sifatida ishonch bilan ayta olamanki, qaysiki davlatning hamkorlari va ittifoqchilari orasida yuksak darajada taraqqiy etganlari ko‘p bo‘lsa, o‘sha mamlakatning barqaror rivojlanishi tezlashadi.

Shu ma’noda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jihatdan dunyoda o‘z o‘rni va so‘ziga ega AQSH bilan faol hamkorlik nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyoti uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Asosiysi, AQSH bilan hamkorligimiz izchil rivojlanib bormoqda. Zero, o‘zaro suhbatda tomonlar oliy darajadagi muloqotlarni davom ettirish niyatini tasdiqladi hamda amaliy hamkorlik bo‘yicha qo‘shma tashabbus va dasturlarni ilgari surishga kelishib oldi.

O‘zbekiston Prezidenti Amerika yetakchisini o‘zi uchun qulay muddatda mamlakatimizga tashrif bilan kelishga taklif etgani ham alohida ahamiyatga ega.

# MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTI UCHUN MUHIM STRATEGIK IMKONIYATLAR

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning o‘zaro ishonch va strategik hamkorlikka asoslangan telefon orqali muloqoti dunyo siyosatidagi bugungi murakkab sharoitda katta ahamiyatga ega. Zero, muloqot davomida Prezidentlar oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini, shuningdek, O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish istiqbollarini batafsil ko‘rib chiqdi.**



**Jamila BOBONAZAROVA, Oliy Majlis Senati a’zosi**

AQSH O‘zbekistonning G‘arbiy yarim shardagi asosiy va ishonchli hamkorlaridan. Ikki davlat o‘rtasidagi chuqur munosabatlar so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilgandan buyon o‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston va AQSH munosabatlari kompleksligi va ko‘p qirraligi bilan ajralib turdi. Keyingi yillar hamkorlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ikki tomonlama munosabatlar mustahkam poydevorda shakllangan va ishonchli xarakterga ega.

Keyingi yillarda turli darajalarda samarali aloqalar tizimli tus oldi. Konstruktiv siyosiy muloqot rivojlanmoqda, faol parlamentlararo almashinuvlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xavfsizlikni ta’minlash, terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish borasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

> **AQSH bilan oliy darajadagi muloqotlarning muntazam tus olishi esa davlatimizning uzoqni ko‘zlagan tashqi siyosati samarasidir. Mazkur suhbatda tomonlar nafaqat erishilgan natijalar, balki ularning amaliy ijrosiga ham alohida e’tibor qaratdi.**

esa aloqalar faollashuvida misli ko‘rilmagan davr bo‘ldi.

Bu munosabatlarni 2017-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, qisqa muddatda juda katta ijobiy natijalarga erishilayotganini ko‘ramiz.

AQSH bilan oliy darajadagi muloqotlarning muntazam tus olishi esa davlatimizning uzoqni ko‘zlagan tashqi siyosati samarasidir. Mazkur suhbatda tomonlar nafaqat erishilgan natijalar, balki ularning amaliy ijrosiga ham alohida e’tibor qaratdi.

O‘zaro munosabatlar tarixi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston mustaqilligini birinchilar qatorida tan olgan AQSH 30 yil davomida eng ishonchli

Prezidentimizning joriy yil noyabrda AQSHga tashrifi doirasida AQSH Kongressi Vakillar palatasi a’zolari bilan o‘tkazgan uchrashuvlari davlatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik aloqalari izchil va maqsadli rivojlanayotganini tasdiqladi. Muloqotlarda savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, sanoat kooperatsiyasi, innovatsion ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish borasida muhim taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Telefon orqali ushbu muloqot ikki tomonlama munosabatlar barqarorligini ta’minlash bilan birga mintaqaviy va global hamkorlik hamda o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.



**2025-yilni “islohotlar yakuni” deb qarash noto‘g‘ri bo‘ladi. Bu yil yangi iqtisodiy modelning shakllanganini tasdiqlagan bosqichdir. Oldinda raqobat kuchayadi, global bozorlar o‘zgarib boradi, texnologiyalar yanada tez rivojlanadi. 2025-yilda qo‘yilgan poydevor mamlakatimiz bu raqobatga tayyor, barqaror, o‘z ichki resurslariga tayangan holda kirib borayotganini ko‘rsatadi.**

# IQTISODIY O‘SISHDAN

Boshlanishi 1-betda

2025-yildagi iqtisodiyotning yana bir muhim xususiyati o‘sish manbalari diversifikatsiya qilinayotganidir. Joriy yilda iqtisodiy o‘sish deyarli barcha asosiy tarmoqlar hisobiga ta’minlandi. Sanoat hajmi 6,8 foiz oshib, YIM o‘sishiga 1,7 foiz punkt hissa qo‘shdi. Ayniqsa, qayta ishlash sanoatining ulushi 85 foizdan oshgani qo‘shilgan qiymat yaratish siyosati samara berayotganini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi 4,1 foiz o‘sdi. Bu natija faqat ob-havo bilan emas, balki agrotexnologiyalar, klaster tizimi va mehnat unumdorligining oshishi bilan bog‘liq.

Qurilish sohasi 14,2 foiz o‘sishni qayd etdi. Infratuzilma va uy-joy qurilishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun kuchli multiplikativ ta’sir ko‘rsatmoqda. Xizmatlar sektori 14 foiz o‘sish bilan iqtisodiyotning asosiy lokomotiviga aylandi va YIM o‘sishiga 4 foiz punkt hissa qo‘shdi.

Raqamlar iqtisodiy o‘sish bir yoki ikki tarmoqqa bog‘lanib qolmayotgani, balki iqtisodiyotning ichki tuzilmasi mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Bu modelning asosiy belgilarini xomashyodan qo‘shilgan qiymatga o‘tish, davlat ishtirokidan xususiy sektor faolligiga tayanish, ijtimoiy siyosatni iqtisodiy siyosat bilan integratsiya qilish, innovatsiya va raqamlashtirishni o‘sish drayveriga aylantirish ko‘rinishida ifodalash mumkin. Shu ma’noda, 2025-yil O‘zbekiston uchun faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar yaxshilangan yil emas, balki iqtisodiy fikrlash o‘zgargan yil sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiyotda bunday qoida bor: tez o‘sish ko‘pincha inflyatsiyani, qat’iy barqarorlik esa sustlikni olib keladi. Ko‘p mamlakatlar aynan shu ikki tanlov o‘rtasida qolib ketadi. 2025-yil yurtimiz uchun esa ushbu an’anaviy ziddiyatni yengish yo‘lidagi amaliy tajriba yili bo‘ldi. Joriy yil iqtisodiy siyosatining eng muhim natijasi shundaki, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish bir-birini inkor etuvchi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi jarayonlar sifatida namoyon bo‘ldi.

Yuqorida qayd etganimizdek, 2025-yil 1 noyabr holatiga ko‘ra, yillik inflyatsiya darajasi 7,8 foizni tashkil etdi. Bu raqam quruq statistika emas. Uning ortida aholi uchun xarid qobiliyati, tadbirkor uchun prognoz, investor uchun ishonch turibdi.

O‘tgan yil inflyatsiya 10 foizdan yuqori bo‘lgan sharoitda narxlar tez o‘zgardi, biznesni rejalashtirish qiyinlashdi, aholi real daromadlariga bosim kuchaydi. 2025-yilda esa vaziyat o‘zgardi. Inflyatsiya pasayishi orqali iqtisodiyotda ishonch muhiti shakllana boshladi. Bu esa iqtisodiy o‘sishning eng muhim, ammo ko‘pincha ko‘zga ko‘rinmaydigan shartidir. Muhimi, inflyatsiyani pasaytirish “iqtisodiy tormoz” hisobiga emas, aksincha, to‘g‘ri tanlangan siyosat orqali amalga oshirildi.

Markaziy bank 2025-yilda pul-kredit siyosatini “qattiqlashtirish yoki yumshatish” kabi sodda tanlov doirasida emas, balki balans san’ati sifatida yuritdi. Bir jihatdan ortiqcha pul massasi cheklandi, inflyatsiya kutilmalari nazoratga olindi, foiz stavkalari bozor uchun tushunarli koridorda ushlab turildi.

Ikkinchi tomondan esa iqtisodiyotda likvidlik tanqisligiga yo‘l qo‘yilmadi, kreditlash keskin qisqarmadi, investitsiya faolligi saqlab qolindi. Bu yondashuv iqtisodiy siyosatda muhim tamoyilni namoyon qildi. Maqsad inflyatsiyani har qanday narx evaziga tushirish emas, uni iqtisodiy o‘sishga zarar yetkazmagan holda nazorat qilishdir.

Inflyatsiya pasayishi milliy valyutaning ichki barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Valyuta kursining keskin tebranishi kamaydi. Bu esa tashqi savdo, investitsiya va biznes qarorlariga ijobiy signal bo‘ldi. Ayniqsa,



**Nodir JUMAYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mita raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

xususiy sektor uchun valyuta barqarorligi import uskunalarini rejalashtirish, eksport shartnomalarini uzoq muddatli tuzish, tashqi qarzlarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu jihatdan 2025-yil iqtisodiyotda uzoq muddatli fikrlash uchun asos yaratgan yil bo‘ldi.

Davlat budjeti ham an’anaviy “xarajatlar smetasi”dan iqtisodiy rivojlanish instrumentiga aylana boshladi. Davlat xarajatlarida ustuvor yo‘nalishlar aniq belgilab olindi. Budjet mablag‘lari iste’molni sun’iy rag‘batlantirishga emas, balki taklifni kengaytirishga yo‘naltirildi. Bu esa inflyatsiyani pasaytirishga ham, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga ham xizmat qildi.

Erishilgan makroiqtisodiy muvozanat kelgusi yillar uchun mustahkam poydevor vazifasini bajarmoqda. Inflyatsiyani 2026-yilda 7 foiz, 2027-yilda esa 5 foiz atrofida ushlab turish rejalari shunchaki deklaratsiya emas. Bu rejalar taklifni oshirish, raqobatni kuchaytirish, xususiy sektor faolligini kengaytirish orqali ro‘yobga chiqarilishi ko‘zda tutilgan. Shu ma’noda, 2025-yil makroiqtisodiy siyosatni strategik boshqarishga o‘tish yili bo‘ldi.

Eng muhim jihat raqamlarda emas. Eng muhim o‘zgarish iqtisodiy siyosat falsafasida. Agar avval “o‘sish uchun barqarorlikdan voz kechish” yoki “barqarorlik uchun o‘sishni qurbon qilish” degan qarashlar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yil bu stereotipni buzdi. Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, to‘g‘ri yo‘nalishdagi institutlar, hisob-kitobli siyosat hamda bozor mexanizmlari orqali o‘sish va barqarorlikni bir vaqtda ta’minlash mumkin.

Agar 2025-yil iqtisodiyotini bitta ibora bilan ifodalash kerak bo‘lsa, uni “investitsiya fikrlashi o‘zgargan yil” deb atash mumkin. Chunki joriy yilda investitsiya siyosati miqdor ortidan quvishdan voz kechib, sifat, samaradorlik va iqtisodiyotga real ta’sir mezonlariga o‘tdi. Endi savol “Qancha mablag‘ kirdi?” emas, balki “Qaysi sohalarga, qanday shartlarda va qanday natija bilan kirdi?” degan mazmunda qo‘yilmoqda. Bu esa investitsiya siyosatining mutlaqo yangi bosqichga chiqqanini ko‘rsatadi.

Yanvar-sentabr oylarida markazlashmagan manbalar hisobidan asosiy kapitalga 400 trillion so‘mdan ortiq investitsiya o‘zlashtirildi. Bu ko‘rsatkich so‘nggi to‘rt yilda deyarli uch barobar o‘sgan. Bir qarashda mazkur rekord raqamlar navbatdagisidek tuyulishi mumkin. Ammo iqtisodchi nuqtayi nazaridan qaraganda eng muhim jihat ko‘rinadi: bu investitsiya manbalarining tarkibi o‘zgarganidir.



Avval davlat budjeti, davlat kafolatidagi loyihalar, yirik infratuzilma dasturlari asosiy o‘rin egallagan bo‘lsa, 2025-yilga kelib vaziyat o‘zgardi. Investitsiya jarayonining markazida xususiy sektor, tijorat banklari, xorijiy investorlar turibdi. Bu esa iqtisodiyotda davlatning maqomi to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirokchidan sharoit yaratuvchi va qoidalar belgilab beruvchiga aylanayotganini anglatadi.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar hajmi 450 trillion so‘mga yaqinlashdi. Bu raqam faqat moliyaviy ko‘rsatkich emas, balki iqtisodiy faollikning qay darajada ekanini ko‘rsatuvchi indikatordir. Muhimi, ushbu kreditlarning katta qismi mikro, kichik, o‘rta biznes subyektlariga yo‘naltirildi. Ya’ni investitsiya faolligi faqat yirik korxonalar bilan cheklanib qolmadi, iqtisodiyotning “qon tomirlari” bo‘lgan minglab tadbirkorlar orqali tarqaldi. Bu jarayon iqtisodiy o‘sishning inklyuziv xarakter kasb etishiga xizmat qildi. Investitsiya iqtisodiyotning tor segmentlarida emas, balki keng qatlamlarida ish boshladi. Xususiy sektor investitsiya jarayonida faqat mablag‘ kirituvchi emas, iqtisodiy islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ldi.

Natijada xususiy biznes ishlab chiqarishni modernizatsiya qilmoqda, raqamli texnologiyalarni joriy etmoqda, eksportga yo‘nalgan mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tmoqda. E’tiborlisi, xususiy investitsiyalar nafaqat yangi korxonalar ochishga, balki mavjud ishlab chiqarishlarni sifat jihatdan yangilashga qaratilmoqda. Bu esa iqtisodiyotda “qurish” bilan birga “takomillashtirish” jarayoni ketayotganini anglatadi.

Joriy yil oxiriga kelib, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni 17 ming 900 tadan oshdi. Mazkur ko‘rsatkich so‘nggi besh

> **Joriy yilga kelib, bank tizimi aktivlari hajmi 877 trillion so‘mdan oshdi. Bu so‘nggi yillardagi izchil islohotlar natijasi. Ammo joriy yilda asosiy savol bunday qo‘yildi: banklar qancha emas, qanday kredit beryapti.**

yilda qariyb ikki barobar o‘sgan. Bu yerda gap faqat sarmoya qiymatida emas. Xorijiy investitsiya bu texnologiya, boshqaruv madaniyati, eksport bozorlariga chiqish imkoniyati degani. Shu ma’noda, har bir xorijiy investor iqtisodiyot uchun qo‘shimcha bilim va tajriba manbaidir.

E’tiborli jihati shundaki, xorij sarmoyasi asosan sanoat, qurilish, axborot-kommunikatsiya, xizmatlar sohalariga kirib kelmoqda. Bu esa iqtisodiyotning kelajakdagi o‘sish nuqtalari aynan shu sohalarda ko‘rilayotganini anglatadi. Investitsiya siyosatidagi yana bir muhim o‘zgarish muhitga e’tibor kuchayganidadir. Investor uchun faqat imtiyozlar emas, balki qonun ustuvorligi, prognoz qilinadigan siyosat, barqaror makroiqtisodiy muhit hal qiluvchi omilga aylandi. Bu borada valyuta liberallashuvi, kapital harakatining erkinlashishi, bank tizimidagi islohotlar va raqamlashtirish investitsiya muhitini sifat jihatdan yaxshiladi.

Shu ma’noda, 2025-yilni O‘zbekiston uchun investitsiya iqtisodiyoti poydevori qo‘yilgan yil deb atash mumkin. Bu yil investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni tezlashtirdi, tarmoqlarni modernizatsiya qildi, xususiy sektorni faollashtirdi, kelgusi 5-10 yillik rivoji uchun zamin hozirladi. Eng muhimi, investitsiya siyosati iqtisodiy islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti haqida gap ketganda, uzoq yillar davomida bitta savol takrorlanib kelgan: biz xomashyo sotuvchisimi yoki tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi davlat? 2025-yil ana shu savolga amalda javob berila boshlangan yil bo‘ldi. Bu yil sanoat tarmog‘i uchun o‘sish va sifat jihatdan yangilanish davri boshlandi. Ishlab chiqarish hajmini oshirish



**Oybek QO‘SHBOQOV, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, ekspert**

emas, qo‘shilgan qiymat yaratish asosiy maqsadga aylandi.

Yakunlanayotgan yilning to‘qqiz oyida sanoat ishlab chiqarishi 6,8 foiz o‘sdi. Ayrimlar bu raqamni avvalgi yillardagi ko‘rsatkich bilan solishtirib, “sur’at sekinlashdimi?” degan savolni qo‘yadi. Ammo iqtisodiy tahlil bu yerda masala sur’atda emas, tarkibda ekanini ko‘rsatdi. E’tiborlisi, sanoat o‘sishining 85 foizdan ortig‘i qayta ishlash sanoati hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa iqtisodiyotimiz xomashyoga bog‘liq o‘sishdan chiqib, tayyor mahsulotga asoslangan sanoat modelini shakllantira boshladi degan muhim xulosani chiqarishga asos bo‘ladi. To‘g‘ri, bu jarayon bir yilda amalga oshmaydi. Ammo 2025-yilda aynan shu yo‘lga qat’iy qadam qo‘yildi.

Metallurgiya ham sanoatning tayanch ustunlaridan biri bo‘lib qoldi. Yanvar-oktabr oylarida metallurgiya mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 184 trillion so‘mdan oshdi. Navoiy va Toshkent viloyati ushbu sohada yetakchi hududlar sifatida shakllanib, mamlakat sanoat salohiyatining muhim qismini ta’minladi. Biroq bu yerda asosiy o‘zgarish raqamlarda emas. Asosiy burilish metallurgiyaning funksiyasi o‘zgarganida. Agar avval metallurgiya xom metall ishlab chiqarish, eksport uchun yarim tayyor mahsulot tayyorlash bilan cheklangan bo‘lsa, joriy yilga kelib, metall konstruksiyalar, mashinasozlik uchun butlovchi qismlar, qurilish va sanoat uskunalari ishlab chiqarish kengaymoqda. Ya’ni metallurgiya sanoat zanjirining boshlang‘ich nuqtasidan uning markaziy bo‘g‘iniga aylanmoqda.

So‘nggi yillarda mashinasozlik sohasi iqtisodiyotimizda strategik yo‘nalish sifatida qayta shakllanmoqda. 2025-yilda bu sohada ikki muhim tendensiya yaqqol ko‘zga tashlandi. Birinchidan, import o‘rnini bosish siyosati chuqurlashdi. Ilgari to‘liq import qilinadigan ko‘plab butlovchi qismlar endi mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarila boshladi. Bu nafaqat valyutani tejash, shu bilan birga, mahalliy sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, ayrim segmentlarda eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar paydo bo‘ldi. Avtomobilsozlik, elektrotexnika va qishloq xo‘jaligi texnikasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar qo‘shni bozorlarga chiqa boshladi. Bu mashinasozlikni ichki bozorga xizmat qiluvchi tarmoqdan mintaqaviy raqobatchiga aylantirish sari tashlangan qadamdir.

Qurilish sohasidagi jadal o‘sish qurilish materiallari sanoati uchun kuchli ichki talab yaratdi. Sement, shisha, metall konstruksiyalar, polimer mahsulotlarga ehtiyoj keskin oshdi. Mazkur holat qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilar uchun ikki imkoniyatni ochdi, ya’ni ichki bozorni to‘yintirish, qo‘shni davlatlarga eksportni kengaytirish.

Sohada xususiy korxonalar ulushi tez o‘smoqda. Yangi zavodlar, modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish quvvatlari raqobat muhitini kuchaytirib, mahsulot sifati va narx barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Sanoat rivojida hududiy ixtisoslashuv tendensiyalari yanada aniqlashdi. Bugun mamlakat xaritasida sanoat faqat poytaxt atrofida jamlanib qolmayapti. Navoiy viloyati metallurgiya va kimyo, Farg‘ona vodiysi yengil sanoat va mashinasozlik, Toshkent shahri va viloyati yuqori texnologik ishlab chiqarish va elektrotexnika markazlariga aylanib bormoqda. Bu jarayon hududlar o‘rtasida sog‘lom raqobatni shakllantirib, logistika xarajatlarini qisqartirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilyapti. Shu bilan birga, ayrim hududlarda sanoat infratuzilmasini yanada kuchaytirish zarurati saqlanib qolmoqda.




# BARQAROR FAROVONLIK SARI






Sanoatdagi eng muhim, ammo kam ko‘rinadigan o‘zgarish raqamlashtirish boshlanganidir. Ko‘plab korxonalarda energiya samarador texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, raqamli hisob va nazorat mexanizmlari joriy etildi. Ayrim yirik korxonalarda sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish tajribasi boshlandi. Bu hali keng ommaviy bosqichga chiqmagan bo‘lsa-da, uning strategik ahamiyati juda katta. Ya’ni bu jarayonda sanoat xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifati va xavfsizligini oshirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Shu ma’noda, 2025-yil O‘zbekiston sanoati uchun burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu yil qayta ishlash ulushi oshdi, mahalliylashtirish ko‘lami kengaydi, xususiy sektor faollashdi, texnologik yangilanish boshlandi.

Eng muhimi, sanoat rivoji endi faqat davlat dasturlari hisobiga emas, balki bozor mexanizmlari, xususiy tashabbus va investitsiyalar orqali ta’minlanmoqda. Bu esa 2026-2030-yillarda mamlakatimizning jahon bozorida raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi davlat sifatida namoyon bo‘lishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Iqtisodiyotda ayrim tarmoqlar borki, ular faqat o‘zi o‘sib qolmay, boshqa sohalarni ham ortidan yetaklaydi. Qurilish ana shunday tarmoqlardan. 2025-yilda qurilish sohasi aynan shu vazifani bajardi. Ya’ni iqtisodiy o‘sishni hududlarga tarqatuvchi asosiy mexanizmga aylandi.

Qurilish ishlari hajmi 14,2 foiz o‘sdi. Ammo uning ahamiyati faqat qurilgan binolar soni bilan emas, balki qaysi yo‘nalishlarga, qanday maqsadda va qanday iqtisodiy ta’sir tufayli qurilayotgani bilan o‘lchanadi. Joriy yilda qurilish faolligining katta qismi uy-joy qurilishi, yo‘l va transport infratuzilmasi, energetika obyektlari, ijtimoiy infratuzilma hisobiga to‘g‘ri keldi. Bu esa qurilish ijtimoiy-iqtisodiy vazifani ham bajarayotganini ko‘rsatadi.

Uy-joy qurilishi keng ko‘lamda davom etdi. Yangi massivlar, ko‘p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiyalari nafaqat aholining turar joyga ehtiyojini qondirish, balki ichki bozorda talabni qo‘llab-quvvatlash vazifasini ham bajardi. Uy-joy qurilishi qurilish materiallari sanoati, mebel va maishiy texnika, xizmatlar sohasi uchun barqaror talab yaratdi. Shu ma’noda, har bir qurilgan uy iqtisodiyot uchun multiplikativ samara bermoqda.

Yo‘llar, ko‘priklar, elektr tarmoqlari, gaz va suv ta’minoti kabi infratuzilma obyektlariga katta e’tibor qaratildi. Bu sarmoya bir qarashda darhol daromad keltirmasligi mumkin. Ammo iqtisodiy nuqtayi nazardan qarasak, aynan infratuzilma uzoq muddatli o‘sishning eng ishonchli garovi ekanini ko‘ramiz.

Yaxshi yo‘l arzon logistika bo‘lsa, barqaror energiya uzluksiz ishlab chiqarish demakdir. Sifatli kommunikatsiya investitsiya jozibadorligini oshiruvchi muhim omil. Amalga oshirilgan infratuzilma loyihalari iqtisodiyot uchun aynan shu sharoitlarni yaratib berdi. E’tiborli jihati, 2025-yilda qurilish ishlarining yarmidan ortig‘ini kichik va o‘rta korxonalar bajardi. Bu holat qurilish sohasida raqobat muhiti shakllangani, monopoliya xavfi kamaygani, xizmatlar sifati oshganini ko‘rsatadi. Muhimi, qurilishda kichik biznes faolligi minglab ish o‘rinlari ochib, aholining daromad manbalarini kengaytirdi.

Shu ma’noda, qurilish sohasi iqtisodiy o‘sishning inklyuziv xarakter kasb etishiga ham xizmat qildi. Qurilish faolligi faqat poytaxt yoki yirik shaharlar bilan cheklanib qolmadi. Qoraqalpog‘istondan tortib, Farg‘ona vodiysigacha, tog‘li hududlardan cho‘l mintaqalarigacha infratuzilma loyihalari amalga oshirildi.

Bu jarayon ikki muhim natija berdi. Birinchidan, hududlarda iqtisodiy faollik oshdi, ikkinchidan, ishlab chiqarish va xizmatlar uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Shu orqali iqtisodiy o‘sish markazlashib qolmasdan, mamlakat bo‘ylab tarqala boshladi.

Qurilish sohasidagi jadal o‘sish qurilish materiallari ishlab chiqarishni ham faollashtirdi va yangi quvvatlar ishga tushirildi. Asosiysi, bu mahsulotlar ichki bozorni to‘yintirmoqda, import o‘rnini bosmoqda, ayrim yo‘nalishlarda eksportga chiqmoqda. Bu esa qurilish sohasining sanoat bilan chuqur bog‘lanib, iqtisodiyotda yopiq aylana emas, balki qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirayotganini ko‘rsatadi.

Lo‘nda qilib aytganda, qurilish va infratuzilma sohasi iqtisodiyotda o‘sish arxitektori vazifasini bajardi. Qurilish iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatladi, hududlarni rivojlantirdi, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirdi, sanoat va xizmatlar uchun sharoit yaratdi. Eng muhimi, qurilish siyosati qisqa muddatli effekt emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ko‘zlab yuritilmoqda.

Iqtisodiyot taraqqiyotida shunday palla keladi: zavod quvvatlari va qurilish maydonlari bilan birga inson ehtiyoji, xizmat sifati va texnologiya hal qiluvchi ahamiyat kasb eta boshlaydi. 2025-yil yurtimiz uchun aynan shunday bosqichga o‘tish yili bo‘ldi. Chunki joriy yilda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning yordamchi segmentidan chiqib, asosiy o‘sish lokomotiviga aylandi. Bu o‘zgarish tasodifiy emas. U uzoq yillar davomida shakllangan ichki talab, raqamlashtirish siyosati va aholi daromadlarining o‘sishi natijasidir.

Nihoyasiga yetayotgan yilda xizmatlar sohasi 14 foiz o‘sib, yalpi ichki mahsulot o‘sishiga 4 foiz punkt hissa qo‘shdi. Bu raqam iqtisodiy statistikada muhim, ammo uning ahamiyati bundan ham chuqur. Chunki xizmatlar sohasidagi o‘sish tez ish o‘rinlari ochadi, kam sarmoya bilan yuqori samara beradi, aholi daromadlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi. Savdo, transport, aloqa, moliyaviy xizmatlar va axborot texnologiyalari segmentlaridagi jadal rivojlanish iqtisodiyotda yangi talab madaniyati shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Chakana savdo aylanmasining 11 foiz o‘sishi aholining xarid qobiliyati barqaror o‘sib borayotganini anglatadi. Bu yerda muhim jihat shundaki, iste’mol o‘sishi real daromadlar, barqaror inflyatsiya, ish bilan bandlik orqali ta’minlanmoqda. Raqamli savdo platformalari, onlayn to‘lovlar va logistika xizmatlarining rivojlanishi iste’molni yangi bosqichga olib chiqdi. Xarid qilish endi faqat bozor yoki do‘kon bilan cheklanib qolmayapti. Iqtisodiyot raqamli makonga ko‘chmoqda.

Transport xizmatlari hajmi 150 trillion so‘mdan oshdi. Bu sohadagi o‘sish faqat ichki harakat bilan emas, balki tashqi savdo va tranzit salohiyati bilan ham bog‘liq. Geografik joylashuvimiz tabiiy ustunligimizdir. Joriy yilda logistika markazlari, transport koridorlari va raqamli boshqaruv tizimlariga yo‘naltirilgan sarmoyalar aynan shu ustunlikni iqtisodiy foydaga aylantirishga qaratildi. Natijada transport xizmatlari iqtisodiyotda bog‘lovchi halqa, tezlashtiruvchi mexanizm, xarajatlarni qisqartiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bu yil turizm sohasi uchun ham alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Xorijlik turistlar sonining 10 milliondan oshishi va turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromadning 4 milliard dollardan ortishi bu sohani iqtisodiyotning to‘laqonli eksport tarmog‘iga aylantirdi. Muhimi, turizm endi faqat tarixiy obidalar bilan cheklanib qolmayapti. Ekologik, gastronomik, tibbiy va qishki turizm yo‘nalishlari kengayib, xizmatlar diversifikatsiya qilinmoqda. Bu esa turizmni mavsumiy emas, yil davomida ishlaydigan iqtisodiy segmentga aylantirmoqda.

Xizmatlar sohasidagi eng katta burilish raqamli iqtisodiyotning keng yoyilishi bo‘ldi. Elektron tijorat, fintex, onlayn bank xizmatlari va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi aholi va biznes uchun vaqt hamda xarajatni tejash imkonini berdi.

Axborot texnologiyalari xizmatlari eksportining keskin o‘sishi O‘zbekistonning raqamli mahsulot yarata oladigan davlat sifatida maydonga chiqishidan dalolat beradi. Bu yerda gap faqat texnologiyada emas. Raqamli iqtisodiyot bu ochiqlik, shaffoflik, samaradorlik demakdir.

Ana shu sifatlar xizmatlar sohasida iqtisodiy faollikni yanada rag‘batlantirmoqda. Xizmatlar sohasi bandlik masalasida ham muhim o‘rin tutdi. Bu sohadagi ish o‘rinlari yoshlar, ayollar, kasbiy qayta tayyorlashdan o‘tgan fuqarolar uchun keng imkoniyat ochdi. Shu ma’noda, xizmatlar iqtisodiyoti nafaqat o‘sish, balki ijtimoiy barqarorlik manbai sifatida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman, 2025-yil iqtisodiyotda xizmatlar sohasi yangi lokomotiv sifatida ishga tushdi. Bu sohadagi o‘sish iqtisodiy faollikni oshirdi, aholi daromadlarini ko‘paytirdi, raqamlashtirishni jadallashtirdi, eksport imkoniyatlarini kengaytirdi. Eng muhimi, xizmatlar iqtisodiyoti inson ehtiyojlariga yaqin, tezkor va samarali bo‘lgani uchun iqtisodiy islohotlarning jamiyatga ta’sirini kuchaytirdi.

Iqtisodiyotni “qon aylanish tizimi”siz tasavvur qilib bo‘lmaganidek, moliya tizimisiz ham barqaror rivojlanish haqida gapirish mumkin emas. 2025-yil moliya tizimi uchun aynan shunday “qon aylanishini tozalash” va tizimni mustahkamlash yili bo‘ldi.

Agar avvalgi yillarda asosiy maqsad iqtisodiyotga ko‘proq pul kiritish bo‘lgan bo‘lsa, joriy yilda e’tibor pulning sifati, harakat yo‘nalishi va qay darajada samara berayotganiga qaratildi. Bu esa moliya tizimida falsafiy o‘zgarish boshlanganidan dalolat.

Joriy yilga kelib, bank tizimi aktivlari hajmi 877 trillion so‘mdan oshdi. Bu so‘nggi yillardagi izchil islohotlar natijasi. Ammo joriy yilda asosiy savol bunday qo‘yildi: banklar qancha emas, qanday kredit beryapti?

Banklar faoliyatida risklarni baholash kuchaytirildi, korporativ boshqaruvga e’tibor oshdi, kredit portfelining sifati ustuvor masalaga aylandi. Bu jarayon oson kechmadi. Chunki tez o‘sishga o‘rganib qolgan tizim uchun sifat mezonlariga o‘tish har doim ham qulay bo‘lavermaydi. Ammo 2025-yil shu jihatdan mas’uliyatli tanlov yili bo‘ldi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon bankining moliyaviy sektorni baholash dasturida ishtirokimiz muhim voqea bo‘ldi. Bu jarayon moliya tizimini tashqi ko‘z bilan ko‘rib chiqish, zaif joylarni aniqlash va islohotlarni chuqurlashtirish imkonini berdi. Xalqaro baholash bank nazorati, kapital yetarliligi, to‘lov tizimlari, inqirozlarni boshqarish mexanizmlari kabi yo‘nalishlarda milliy tizimni jahon standartlariga yaqinlashtirishga xizmat qildi. Bu esa investorlar va moliya bozori ishtirokchilari uchun muhim signaldir.

2025-yilda banklararo pul bozori faolligi sezilarli darajada oshdi. REPO operatsiyalarining kengayishi, qisqa muddatli moliyalashtirish instrumentlarining ishga tushishi banklar o‘rtasida ishonch ortganini ko‘rsatadi. Foiz stavkalari asosiy stavka koridorida shakllanib, bozor uchun tushunarli va prognoz qilinadigan muhit yaratdi. Bu esa moliya tizimida intuitsiya emas, qoida asosida ishlash tamoyili mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Kapital bozori masalasi kun tartibining oldingi safiga chiqdi. Hozir qimmatli qog‘ozlar bozorining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 20 foiz atrofida. Bu ko‘rsatkich rivojlangan bozorlar bilan solishtirganda hali past. Biroq iqtisodiy nuqtayi nazardan qarasak, bu kamchilik emas, balki ulkan imkoniyatdir. Shu bois, joriy yilda kapital bozorini jonlantirishga qaratilgan qator muhim qadamlar tashlandi. Xususan, “dual listing” amaliyotiga ruxsat berildi, valyutada chiqariladigan obligatsiyalar joriy etildi, xorijiy investorlar uchun bozor ochiqligi ta’minlandi. Ushbu islohotlar iqtisodiyotni faqat bank kreditiga bog‘lab qo‘ymay, uzoq muddatli sarmoya manbalarini diversifikatsiyalashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmining keskin oshishi, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes uchun yangi imkoniyatlarni ochdi. “Mahallabay” ishlash tizimi orqali kredit resurslari bevosita joylardagi tadbirkorlik tashabbuslariga yetib bordi. Bu jarayonning ahamiyati shundaki, moliyaviy resurslar faqat yirik loyihalarda emas, balki minglab kichik ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish nuqtalari orqali iqtisodiyotga tarqaldi. Shu orqali moliya tizimi iqtisodiy o‘sishning real ishtirokchisiga aylandi.

Inflyatsiyani pasaytirishda taklifni oshirish siyosati hal qiluvchi o‘rin tutadi. Oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohalaridagi investitsiyalar ichki bozorni mahsulot va xizmatlar bilan to‘yintirdi. Bu yondashuv iqtisodiy siyosatda muhim xulosani namoyon qildi: uzoq muddatda inflyatsiyaga qarshi eng samarali kurash ishlab chiqarishni kengaytirishdir.

Umumlashtirib aytsak, 2025-yil moliya tizimi uchun ishonch yili bo‘ldi: bank tizimi sifatga o‘ta boshladi, kapital bozori ochildi, moliyaviy qoidalar oydinlashdi, iqtisodiyot uchun uzoq muddatli sarmoya poydevori yaratildi. Eng muhimi, moliya tizimi iqtisodiy o‘sishga xizmat qiluvchi, ammo uni xavf ostiga qo‘ymaydigan mexanizm sifatida qayta shakllanmoqda.

Iqtisodiy islohotlar haqida gap ketganda ko‘pincha raqamlar, foizlar va diagrammalar tilga olinadi. Ammo islohotlarning eng aniq o‘lchovi inson hayotidagi o‘zgarishdir. 2025-yilda iqtisodiy siyosatda aynan shu qarash ustuvorlik kasb eta boshladi: iqtisodiyot raqamlar uchun emas, inson uchun xizmat qilishi kerak.

Ijtimoiy siyosat falsafasi ham tubdan o‘zgardi. Ilgari asosan nafaqa va moddiy yordamga tayangan tizim endi insonni iqtisodiy faollikka olib chiqishga qaratilmoqda. Bu o‘zgarish kambag‘allikka qarshi passiv qo‘llab-quvvatlov bilan emas, balki daromad yaratish orqali kurashilayotganidan dalolat beradi. Iqtisodchi sifatida aytish mumkinki, bu eng to‘g‘ri yo‘ldir. Chunki barqaror farovonlik faqat mehnat va tashabbus orqali ta’minlanadi.

Ijtimoiy himoya tizimidagi eng muhim yangilik Ijtimoiy reyestrning joriy etilishi bo‘ldi. Mazkur tizim orqali aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati kompleks baholanib, davlat yordami haqiqatan muhtoj qatlamlarga manzilli yetkazila boshladi. Ijtimoiy reyestr davlat mablag‘larining samaradorligini oshirdi, ortiqcha sarf-xarajatlarni qisqartirdi, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamladi.

Kambag‘allikka qarshi kurashish siyosati yangi bosqichga chiqdi. Ilgari asosiy e’tibor nafaqa va ijtimoiy to‘lovlarga qaratilgan bo‘lsa, endi kasbga yo‘naltirish, qayta tayyorlash, tadbirkorlikka jalb etish ustuvor yo‘nalishga aylandi. “Mahallabay” yondashuv bu borada institutsional yechim sifatida ishlayapti. Har bir mahallada aholining salohiyati, mehnat qobiliyati va biznes g‘oyalari o‘rganilib, aniq loyihalarga aylantirilmoqda. Bu iqtisodiy islohotlarning joylarda sezilishini ta’minlamoqda.

Mehnat bozori siyosati ham sifat jihatdan o‘zgardi. Asosiy e’tibor ish o‘rinlari soniga emas, balki ularning barqarorligi va daromadliligiga qaratildi. Yangi ish o‘rinlari qurilish va xizmatlar sohasida, sanoat va logistika tarmoqlarida, raqamli iqtisodiyot yo‘nalishlarida ochildi. Bu mehnat bozorini diversifikatsiya qilishga undadi, aholini faqat bir sohada ishlashga majbur bo‘lib qolishdan xalos etdi. Yoshlar va ayollar bandligiga ham alohida e’tibor qaratildi. Kasb-hunar ta’limi, qayta tayyorlash dasturlari va xususiy sektor bilan hamkorlikdagi loyihalar inson kapitali sifatini oshirishga xizmat qildi. Bu jarayon iqtisodiy nuqtayi nazardan ham juda muhim. Chunki iqtisodiy o‘sish qanchalik keng qatlamni qamrasa, shunchalik barqaror bo‘ladi. Shu ma’noda, inklyuziv o‘sish ijtimoiy shior emas, balki iqtisodiy zaruratdir.

Ijtimoiy xizmatlar tizimi kengaytirildi. Hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar, qariyalar va og‘ir hayotiy vaziyatdagi fuqarolarga kompleks xizmat ko‘rsatila boshladi. Bu xizmatlar nafaqat moddiy yordam, balki reabilitatsiya, ta’lim, psixologik qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini ham qamrab oldi. Mazkur holat ijtimoiy siyosatda inson qadrini markazga qo‘yish tamoyili mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Joriy yil tajribasi ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni alohida yuritish samara bermasligini ko‘rsatdi. Ular bir-birini to‘ldirgandagina barqaror natija beradi. Ijtimoiy himoya aholini iqtisodiy faollikka tayyorlasa, iqtisodiy o‘sish ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytiradi. Ana shu uyg‘unlik islohotlarning eng muhim yutuqlaridan biri bo‘ldi.

2025-yil iqtisodiy siyosatni inson qiyofasi bilan boyitgan yil bo‘ldi. Bu yil iqtisodiy o‘sish raqamlarda, zavodlarda, hisobotlarda emas, avvalo, odamlar hayotida sezila boshladi. Shu ma’noda, ijtimoiy islohotlar iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mohiyatiga aylandi.

Tarixga nazar tashlasak, har bir iqtisodiy sakrash muayyan texnologiya bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘ramiz. Bug‘ mashinasi sanoat inqilobini, elektr energiyasi ommaviy ishlab chiqarishni, internet globallashuvni tezlashtirdi. 2025-yilda mamlakatimiz uchun ana shunday yangi texnologiyaviy burilish nuqtasi sun’iy intellekt bilan bog‘liq bo‘lmoqda.

Joriy yil raqamli iqtisodiyot haqida shunchaki gapirilgan davrdan chiqib, uni real iqtisodiy resurs sifatida qo‘llash boshlangan yil sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizda sun’iy intellektga alohida axborot texnologiyalari yo‘nalishi emas, balki iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi fundamental omil sifatida qarala boshladi. Bu o‘zgarish davlat siyosatining o‘zida aks etdi. 2030-yilga qadar sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi qabul qilinishi uzoq muddatli maqsadlarni belgilab berdi, davlat va xususiy sektor uchun aniq “yo‘l xaritasi”ni yaratdi, innovatsiyalarni tizimli jarayonga aylantirdi. Muhimi, ushbu strategiya sun’iy intellektni “kelajakda kerak bo‘ladigan texnologiya” emas, balki hozir ishlashi kerak bo‘lgan iqtisodiy vosita sifatida ko‘radi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari ilk bor keng ko‘lamda real sektorga joriy etila boshladi. Bu jarayon, ayniqsa, sog‘liqni saqlashda tashxis qo‘yish tizimlari, tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilish orqali xizmat sifatini oshirish, transportda harakat xavfsizligini nazorat qilish, logistika jarayonlarini optimallashtirish, qishloq xo‘jaligida yer holatini monitoring qilish, hosil prognozini aniqlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, sun’iy intellekt iqtisodiyotga ikki yo‘nalishda ta’sir qilmoqda. Birinchidan, xarajatlarni kamaytiryapti, ikkinchidan, qo‘shimcha qiymat yaratyapti.

Innovatsion muhit ham sifat jihatdan o‘zgardi. Startaplar soni ortib, venchur moliyalashtirish elementlari paydo bo‘ldi. Texnologik parklar, akseleratsiya dasturlari va xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik yangi g‘oyalarni bozorga olib chiqish imkonini bermoqda. Innovatsiya endi alohida entuziastlar ishi emas, balki iqtisodiy tizimning bir qismiga aylanmoqda.

Axborot texnologiyalari xizmatlari eksporti bir necha barobar o‘sdi. Bu raqamlar ortida juda muhim tendensiya yotibdi: O‘zbekiston jahon bozoriga nafaqat xomashyo yoki an’anaviy mahsulotlar, balki intellektual mahsulot ham taklif qila boshladi. AT xizmatlari eksporti valyuta tushumini diversifikatsiya qilmoqda, yoshlar uchun yuqori daromadli ish o‘rinlari ochmoqda, mamlakatning texnologik imijini shakllantirmoqda. Bu kelajak iqtisodiyotining belgisidir.

Sun’iy intellekt va innovatsiyalar sohasidagi eng muhim masala kadrlardir. Ta’lim tizimida sun’iy intellekt, dasturlash va raqamli ko‘nikmalarni o‘qitishga alohida e’tibor qaratildi. Maktabdan tortib, oliy ta’limgacha bo‘lgan tizimda texnologiyaga mos kadrlar tayyorlana boshladi. Ushbu yondashuv iqtisodiy siyosatdagi muhim xulosani aks ettiradi: kelajak iqtisodiyoti zavodlarda emas, bilimli insonlarda quriladi.

Innovatsiyalar raqobatbardoshlikning asosiy omiliga aylanayapti. Arzon ishchi kuchi yoki tabiiy resurslar endi yetarli emas. Bozorda g‘alaba qozonish uchun texnologiya, samaradorlik, tezkor qaror qabul qilish talab etiladi. Sun’iy intellekt va raqamli yechimlar aynan shu ustunliklarni ta’minlamoqda.

2025-yil O‘zbekiston uchun sun’iy intellekt va innovatsiyalar sohasiga kirish yili bo‘ldi: texnologiya iqtisodiy siyosat markaziga chiqdi, innovatsiyalar tizimli jarayonga aylandi, kelajak iqtisodiyoti uchun poydevor qo‘yildi. Albatta, bu yo‘lning boshi. Oldinda murakkab vazifalar, raqobat va yangi chaqiriqlar bor. Ammo eng muhimi, yo‘nalish to‘g‘ri tanlangan.

Iqtisodiy tarixda shunday yillar bo‘ladi: ular alohida qarorlar yoki bitta ko‘rsatkich bilan emas, balki umumiy yo‘nalishning o‘zgarishi bilan esda qoladi. 2025-yil O‘zbekiston uchun aynan shunday yil bo‘ldi. Bu yil mamlakat iqtisodiyotida butun tizim yangicha ishlay boshladi. Agar so‘nggi yillarda islohotlar “yo‘l ochish”, “to‘siqlarni olib tashlash”, “tizimni harakatga keltirish” bosqichi bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda ushbu islohotlar aniq iqtisodiy samara bera boshladi.

Natijalar shunchaki o‘sish sur’ati bilan emas, balki ularning mazmuni bilan qimmatli. Yalpi ichki mahsulot o‘sdi, inflyatsiya pasaydi, investitsiyalar rekord darajaga chiqdi. Ammo eng muhimi, bu raqamlar ortida diversifikatsiya, barqarorlik va qo‘shilgan qiymat yotibdi. Iqtisodiy o‘sish faqat iste’mol hisobiga, davlat xarajatlari, xomashyo eksporti orqali emas, balki investitsiya, qayta ishlash, xizmatlar va texnologiyalar orqali ta’minlandi. Bu esa iqtisodiyotni tashqi shoklarga nisbatan ancha barqaror qiladi.

Joriy yil iqtisodiy siyosatda muhim falsafiy o‘zgarishni namoyon qildi. Davlat iqtisodiyotda hamma ishni o‘zi bajaruvchi, bozorni to‘liq nazorat qiluvchi sifatida emas, aksincha sharoit yaratuvchi, qoida belgilab beruvchi va adolatni ta’minlovchi subyekt sifatida maydonga chiqdi. Xususiy sektor, tadbirkorlik, investorlar aynan shu ishonchli muhitda faollashdi. Bu iqtisodiy taraqqiyotning eng to‘g‘ri va sinovdan o‘tgan yo‘lidir. Natijada sanoat, xizmatlar va innovatsiyalar o‘rtasida yangi muvozanat shakllandi. Sanoat xomashyodan qo‘shilgan qiymatga o‘ta boshladi. Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning asosiy lokomotiviga aylandi. Sun’iy intellekt va raqamli yechimlar kelajak iqtisodiyotining poydevori sifatida belgilandi. Bu uchlik: “ishlab chiqarish — xizmat — texnologiya” yangi O‘zbekiston iqtisodiy modelining asosiy ustunlaridir.

2025-yilda iqtisodiy o‘sish insondan uzilib qolmadi. Ijtimoiy siyosat iqtisodiy siyosatdan ajralgan holda emas, balki u bilan uyg‘un ravishda amalga oshirildi. Kambag‘allikka qarshi kurash nafaqa bilan cheklanmadi, insonni iqtisodiy faollikka olib chiqishga qaratildi. Bandlik, ta’lim, kasbga yo‘naltirish, ijtimoiy xizmatlar — bularning barchasi iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy qiymatini oshirdi.

Eng muhim xulosa bunday: 2025-yilni “islohotlar yakuni” deb qarash noto‘g‘ri bo‘ladi. Bu yil yangi iqtisodiy modelning shakllanganini tasdiqlagan bosqichdir. Oldinda raqobat kuchayadi, global bozorlar o‘zgarib boradi, texnologiyalar yanada tez rivojlanadi. 2025-yilda qo‘yilgan poydevor mamlakatimiz bu raqobatga tayyor, barqaror, o‘z ichki resurslariga tayangan holda kirib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu ma’noda, 2025-yil O‘zbekiston uchun navbatdagi odatiy yil emas. Joriy yil iqtisodiy ishonch qayta tiklangan, davlat va jamiyat o‘rtasida yangi kelishuv shakllangan, kelajakka ishonch bilan qarash mumkin bo‘lgan davr sifatida tarixda qoladi. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti aynan shu yilda o‘z qiyofasini topa boshladi.

# AHOLINI UMUMMILLIY RO‘YXATGA OLISH

## SHUNCHAKI TADBIR EMAS

Kun mavzusi

**Ma’lumotlarga ko‘ra, kelgusi yili 15-yanvardan 28-fevralga qadar mamlakatimizda aholi va qishloq xo‘jaligi to‘liq ro‘yxatga olinadi. Mazkur tadbir yurtdoshlarimiz soni, yoshi, milliy tarkibi, turmush sharoiti, bandligi kabi aniq statistik ma’lumotlarni shakllantirishga qaratilgan muhim jarayondir. O‘tgan bir necha yilda bunga katta tayyorgarlik ko‘rilgani, amaliyot ba’zi hududlarda sinov tariqasida ham o‘tkazilgani aytilmoqda.**





USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Endi ana shu ro‘yxatga olish tadbiri umummilliy tarzda uyushtiriladi. To‘g‘ri, hozir ham mamlakatimiz aholisi va yer maydoni haqidagi ma’lumotlar, statistika ko‘rsatkichlari mavjud. Ammo ular ancha ilgari, qolaversa, eski usullarda shakllantirilgan. Aniqrog‘i, yurtimizda oxirgi marta 1989-yili aholi umummilliy ro‘yxatga olingan. O‘tgan 35 yildan ortiq vaqt davomida demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarda yaxshigina o‘zgarishlar bo‘lgan. Ayniqsa, oxirgi o‘n yillikda O‘zbekiston taraqqiyoti ham, rivojlanishi va aholi farovonligi ham avvalgidan tubdan farq qiladi. O‘sish va o‘zgarish nihoyatda katta. Aholi soni ham shunga mos tarzda oshib boryapti. Esimda, avvallari aholi soni bilan bog‘liq raqamlardagi o‘zgarishlar bir necha yilda bir o‘zgarardi. Hozir raqamlar yiliga sezilarli o‘syapti, allaqachon 38 million kishidan oshdik.

Bularning barchasi ijobiy ko‘rsatkich, albatta. Ana shu o‘zgarishlarning hammasi yurtimizda aholi va qishloq xo‘jaligi yerini ro‘yxatga olishning yangi bosqichini o‘tkazish zaruratini yuzaga keltirdi. Aniqrog‘i, bu zarurat paydo bo‘lganiga bir necha yil bo‘ldi. Shunchaki jarayon eng zamonaviy va xalqaro standartlar asosida o‘tkazilishi uchun jiddiy tayyorgarlik ko‘rildi. Nihoyat kelgusi yili avvalida mamlakatimiz bo‘ylab umummilliy ro‘yxatga olish tadbiri tashkil etiladi.

Xo‘sh, bu bizga nima beradi? Birinchi navbatda, aholi va turmush sharoiti to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar aynan ro‘yxatga olish jarayonida shakllantiriladi. Masalan, Farg‘onada necha kishi ishsiz? Andijonda nechta oila uy-joyga muhtoj? Sirdaryoda yana nechta ta’lim muassasasi qurilishi lozim? Qashqadaryoda aholi xonadonlari asosan qaysi yillarda qurilgan? Toshkent shahrida aslida, qancha kishi istiqomat qiladi va hokazo. Aholini ro‘yxatga olish amaliyoti shu kabi ko‘plab savollarga javob, muammolarga yechim topish imkonini beradi.

— Jahon tajribasiga ko‘ra, mamlakat aholisining aniq soni, yoshi, jinsi, fuqaroligi, milliy tarkibi, oilaviy ahvoli, kasbi, bandligi, daromad manbai va boshqa jihatlar bo‘yicha batafsil ma’lumot to‘plashning eng samarali usuli aholini ro‘yxatga olishdir, — deydi Milliy statistika qo‘mitasi matbuot va jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi boshlig‘i Kamola Ismoilova. — Rivojlangan davlatlar amaliyotida har o‘n yilda bir marta aholini, har besh yilda bir qishloq xo‘jaligi yerlarini ro‘yxatga olish an’anasi yo‘lga qo‘yilgan. Bunda mavjud statistik raqamlarni yanada aniqlashtirish, eng oxirgi ma’lumotlarni shakllantirish maqsad qilinadi. Shu jihatdan mazkur jarayon O‘zbekiston uchun ham muhim. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinib, unda aholini kamida har 10 yilda, qishloq xo‘jaligini esa har 5 yilda ro‘yxatga olish zarurligi belgilangan.



Dastlab 2021-yilda aholi va 2022-yilda qishloq xo‘jaligi maydoni sinov tariqasida ro‘yxatga olindi. Ushbu amaliyot mustaqillik yillarida yurtimizda ilk bor o‘tkazilayotganini inobatga olib, uni tashkil etishga puxta tayyorgarlik ko‘rildi. To‘liq ro‘yxatga olish uchun zarur texnik tayyorgarlik ishlari bajarilib, huquqiy asoslar ishlab chiqilgach, umummilliy tadbir 2026-yilda o‘tkazilishi belgilandi. Jarayonda aholi va qishloq xo‘jaligi uyg‘un holda ro‘yxatga olinadi. Bu ham vaqtni, ham xarajatni tejab, so‘rovlarni maqbullashtirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv mamlakatning moliyaviy va tashkiliy resurslarini samarali boshqarishga xizmat qilishi bilan birga ma’lumotlarning to‘liqligi va sifatini oshiradi.

Har bir fuqaro teng sharoitda yashash, barcha xizmatdan birdek foydalana olish, eng chekka hududlar aholisi ham suv, gaz, elektr ta’minotiga ega bo‘lishni istaydi. Bugun davlatimiz o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifa ham shu. Barcha birdek farovon hayot kechirishi uchun zarur choralar ko‘rilmoqda. Ayni maqsadda amaliyotda qo‘llanayotgan o‘zimizga xos tajriba, xususan, mahallabay ishlash tizimi samarasini boshqa mamlakatlar ham e’tirof etyapti. Qilinayotgan ishlar natijadorligi yanada ortishi, har bir yurtdoshimiz yaxshiroq yashashi uchun ham ro‘yxatga olish amaliyoti muhim.

— Jarayon uch bosqichda tashkil etiladi, — deydi Kamola Ismoilova. — Dastlabki 17 kunda aholiga internet orqali ma’lumotlarni kiritish imkoniyati yaratiladi. Bunda fuqarolar census.stat.uz portali orqali OneID tizimi yordamida ro‘yxatdan o‘tadi. Shundan so‘ng o‘zi va oila a’zolari to‘g‘risidagi savolnomani mustaqil to‘ldirishi mumkin. So‘rovnomada 71 ta savol bo‘lib, 54 tasi aholiga, 17 tasi qishloq xo‘jaligiga oid. Jumladan, asosiy demografik ko‘rsatkichlar, aholining daromad manbai, bandligi va ta’lim darajasi, turar joy xususiyatlari, ayrim toifalar, chet el fuqarolari hamda qishloq xo‘jaligi bo‘yicha savollar o‘rin olgan.

Keyingi bir oyda esa “mahalla yettiligi” a’zolari ishtirokida uyma-uy yurib, ma’lumotlar yig‘iladi. Buning uchun avval “mahalla yettiligi” a’zolari maxsus dasturlar asosida tayyorlanadi va ularning faoliyati rag‘batlantiriladi. Yettilikning aholi bilan doimiy muloqotda bo‘lishi va fuqarolar ehtiyoji hamda sharoitlarini yaxshi bilishi ro‘yxatga olish jarayonining sifati, haqqoniyligi va aniqligini kafolatlaydi.

Ro‘yxatga olish ishlarida mahalla instituti tizimidan faol foydalaniladi. Boisi, mahalla faollari fuqarolarni yaxshi taniydi, odamlar ham ularga ishonadi. Eshikni taqillatib borganida ma’lumotlarni ikkilanmay taqdim etadi. Deylik, bu masalada fuqarolar xonadoniga begona odam borsa, ish ko‘proq vaqt olishi mumkin. Ro‘yxatga olish uchun kelgan kishi maxsus xodim ekaniga odamlar ishonishi uchun ham bir oz muddat ketadi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligiga oid puxta chora-tadbirlar natijasi o‘laroq, aynan har bir shaxsning o‘zi tanigan-bilgan “mahalla yettiligi” a’zolarigagina ishonib ma’lumotlarni taqdim qilishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Belgilangan muddatda ro‘yxatga olish jarayoni yakunlangach, ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish bosqichi boshlanadi. Mutaxassislarning tushuntirishicha, ro‘yxatga olish natijalari Yevropa statistiklar konferensiyasining 2020-yilgi tavsiyalariga muvofiq umumlashtiriladi. Shu tarzda mamlakatimiz aholisining demografik tarkibi, migratsiya jarayonlari, oilaviy holati, faoliyat turlari va daromad manbalari to‘g‘risida yagona ma’lumotlar bazasi shakllanadi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish, chorvachilik va parrandachilik sohasiga oid ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Umummilliy ro‘yxatga olish tadbiri aholi va qishloq xo‘jaligi sohasi uchun nisbatan kam harakatlanadigan qish fasliga to‘g‘ri kelishi bilan ham qulaylik yaratadi. Bu vaqtda qishloq xo‘jaligida mavsumiy ishlar kamaygan bo‘lib, fermer va dehqonlar uchun ma’lumotlarni taqdim etish vaqti qulay bo‘lishi aytilmoqda. Mavsumiy omillarni hisobga olish, shuningdek, tashkiliy imkoniyatlardan samarali foydalanish ro‘yxatga olish jarayonining aniqligi va to‘liqligini ta’minlaydi. Masalan, qish faslida chorva mollarining soni va yer resurslaridan foydalanish holatini aniqlash osonroq bo‘lib, bu ma’lumotlarning ishonchliligini oshiradi.

— Aholi va qishloq xo‘jaligini umummilliy ro‘yxatga olish mustaqil O‘zbekiston amaliyotida yangilik va katta voqea bo‘lib, ushbu tarixiy hodisa xalqaro tashkilotlar tomonidan ham yuqori baholanmoqda, — deydi Kamola Ismoilova. — Xususan, BMT Aholishunoslik jamg‘armasi hamda Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ekspertlari O‘zbekistonning aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari va ushbu jarayonning birgalikda tashkil etilishiga ijobiy xulosalar bildirgan. Ushbu xalqaro tashkilotlarning qo‘llab-quvvatlovi yurtimizdagi ro‘yxatga olish jarayonining global standartlarga muvofiqligi hamda uning natijalari xalqaro miqyosda e’tirof etilishini ko‘rsatadi.

Qisqasi, ro‘yxatga olish jarayoni shunchaki tadbir emas, balki xalqaro ahamiyatga ega voqeadir. Bu nafaqat davlat organlari uchun statistik ma’lumotlar yig‘ish vositasi, ayni vaqtda butun jamiyatning farovonligi va kelajakda rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim tadbir. Yig‘ilgan ma’lumotlar respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari ochish, aholi salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda muhim axborot bazasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, ro‘yxatga olishda har birimizning faol va mas’uliyatli ishtirokimiz ushbu tarixiy jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

**Iroda TOSHMATOVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

---

Hududlar hayoti

# CHORVADORLAR HISORI VA BOYAD ZOTIDAN YANGI GENOFOND YARATMOQDA





**Prezidentimiz joriy yil 24-25-iyun kunlari rasmiy tashrif bilan Mo‘g‘ulistonga borgan edi. Tashrif davomida ikki davlat o‘rtasida qator muhim kelishuvlarga erishildi. Ulardan biri chorvachilik sohasini rivojlantirish yo‘nalishida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir.**

Mazkur tashrifdan so‘ng Prezidentimiz “Mo‘g‘ulistonga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohalarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni qabul qilgandi. Ushbu hujjatga ko‘ra, yurtimizga 100 ming bosh mayda shoxli mol olib kelinadigan bo‘ldi. Hozir mazkur qaror ijrosi doirasida Mo‘g‘ulistondan naslli qo‘y-echkilar olib kelish davom etmoqda.

— Ularni olib kelish uchun tadbirkorlarga havo transportida tashish xarajatlarining 50 foizi davlat budjeti hisobidan qoplab berilmoqda, — deydi Surxondaryo viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi Azamat Xo‘janov. — Bundan tashqari, 2 yillik imtiyozli davr bilan 5 yilgacha kreditlar berilyapti. Muhimi, kreditlar uchun garov talabi 50 foizgacha sug‘urta yordamida yengillashtirildi.

Mo‘g‘ulistonning maydoni O‘zbekistonnikidan qariyb to‘rt barobar katta. Ammo aholisi bizdan o‘n barobar kam. Ya’ni mo‘g‘ullar diyorida bor-yo‘g‘i 3,5 milliondan ortiq kishi istiqomat qiladi. Mo‘g‘ulistonda 1 $km^2$ga o‘rtacha 2 kishi to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 80 kishidan ortiq.

Chorvachilik Mo‘g‘uliston milliy iqtisodiyotining asosiy tarmog‘idir. Mamlakatda 80 milliondan ortiq chorva bor. Yirik va mayda shoxli chorva hayvonlarini boqish, ko‘paytirish, go‘sht, jun, teri mahsulotlari ishlab chiqarish borasida dunyodagi yetakchi mamlakatlar sirasiga kiradi. Mo‘g‘ulistonda yaylovlar juda ko‘p va keng hududlarga ega. Bu qo‘y boqish va go‘sht yetishtirish tannarxini arzonlashtiradi. O‘zbekistonda esa aholi zich, yaylovlar cheklangan. Shu bois, mahalliy chorvachilikni rivojlantirish bilan birga arzon va sergo‘sht qo‘ylarni chetdan olib kirish aholini go‘sht bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar fikricha, Mo‘g‘ulistondan boyad zotli qo‘ylarni yurtimizga olib kelish mahalliy zotlarni yaxshilashda qo‘l keladi. Bu qo‘ylar iqlim o‘zgarishlariga chidamli, sergo‘sht va tez ko‘payadi. Yaxshi boqilgan bir bosh boyad qo‘yi bir yilda o‘rta hisobda ikki marta bolalaydi.

— O‘zimizning jaydari qo‘y o‘rta hisobda 25-30 kilo go‘sht qilsa, uning 30-35 foizi yog‘ bo‘ladi. Mo‘g‘uliston qo‘ylarida bu miqdor 7-8 foizga ham bormaydi. Ya’ni yog‘i kam, parhezbop go‘sht beradi. Boyad zotli qo‘ylar nafaqat go‘sht va naslchilik, balki sifatli jun yetkazib berishda ham o‘ziga xos imkoniyat sanaladi, — deydi Surxondaryo viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi Ollayor Normurodov. — Qo‘ylarning juni mayin va uzun, oq rangda bo‘lib, xomashyoni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishda ortiqcha xarajatga o‘rin qoldirmaydi. Bu sifatli va arzon mahsulot olishda ustuvorlik beradi. Prezidentimizning Mo‘g‘uliston bilan kelishuvi sabab qo‘y va echki eksport qilishda davlat boji 18 dollardan 7 dollarga tushirildi. Bunday imtiyoz va imkoniyatlar tadbirkorlar uchun ayni muddao bo‘lmoqda.

Qarorga muvofiq, Mo‘g‘ulistondan keltirilgan mayda shoxli mollar ko‘paytirilib, 2029-yilgacha ularning soni 1 million boshga yetkaziladi. Birgina Surxondaryo viloyatida 100 ming boshga yetkazish reja qilingan. Hozirgacha viloyatda 12 tadbirkor 14 ming 600 bosh qo‘y olib kelish bo‘yicha shartnoma imzolagan. Shu kungacha vohadagi 12 ta chorvachilik xo‘jaligi 6934 bosh qo‘y va echki olib keldi. Jumladan, Denov tumanidagi “Ramziddin Barakat Chorvalari” MCHJ boyad zotli 1475 bosh naslli qo‘yni ko‘paytirish maqsadida boqyapti.

Uzun tumanidagi “Bahrombek Hasan” MCHJ chorvachilik fermer xo‘jaligi mayda shoxli hayvon boqishda katta tajribaga ega. Dastlab 50 bosh qo‘y-qo‘zi boqishdan ish boshlagan fermerning qo‘rasida bugun 1000 boshdan ortiq hisori qo‘y bor. Hozirgacha mazkur fermer xo‘jaligiga 400 bosh bayad zotli qo‘y keltirilgan.

— Maqsadimiz keltirilgan qo‘ylarni hisori zotli qo‘ylar bilan chatishtirish orqali yangi zot, genofond yaratish. Shu orqali chorvachilikka yangi quvvat va sifat olib kirish kutilmoqda, — deydi fermer Bahrom Nazarov. — Xalqimizda “Dehqonchilik bir yilda, chorvachilik qirq yilda” degan naql bor. Ya’ni dehqonchilik bir yil o‘xshamasa, kelasi yil kutilgan natijaga erishasiz. Chorvadagi daromadni esa uzoq yillar kutishga to‘g‘ri keladi. Biz yillar davomida e’tibor bermaganimiz bois, chorvachilikda katta yo‘qotishga yo‘l qo‘ygandik. Mana, endi-endi tiklay boshladik.

Olib kelinayotgan qo‘ylarning yoshi 7 oylikdan katta, 20 oylikdan kichik, tirik vazni esa 30-45 kilo oralig‘ida bo‘lishi belgilangan. Hozir barcha qo‘ylarni veterinariya xodimlari qat’iy nazorat qilib, ularning sog‘lig‘i muntazam tekshirilmoqda. Turli yuqumli kasalliklarga qarshi emlanmoqda. Shu bilan birga, zarur vitamin va ozuqa qo‘shimchalar berilib, mahalliy iqlimga moslashtirilmoqda.

**Sarvar TO‘RAYEV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

---

# KARMANA — INNOVATSION TUMAN




## KECHA BOSHLANGAN ISHLAR YORUG‘ ISTIQBOLDAN DARAK BERMOQDA

**Davlatimiz rahbari Karmana tumanini innovatsion hududga aylantirish tashabbusini ilgari surgan edi. Bundan yangi ish o‘rinlari ochish, yoshlarning zamonaviy texnologiyalarga qiziqishini oshirish va innovatsion faoliyatga jalb qilish ko‘zlangandi. O‘tgan vaqtda ushbu tashabbus ijrosi yuzasidan dasturlar ishlab chiqildi. Shu namuna asosida viloyatning boshqa shahar-tumanlarida ham ishlar boshlab yuborildi. Natija esa quvonarli — Karmanada yangi korxonalar soni ko‘payib boryapti.**

Yaqinda sanoat korxonalari uchun metall mahsulotlar yetkazib berishga ixtisoslashgan yirik loyiha ishga tushirildi. Zavod yengil konstruksiya va energiyatejamkor texnologiyalar asosida qurildi. Muhimi, ilgari chetdan sotib olinadigan ko‘plab uskuna va butlovchi materiallar mahalliylashtirildi. Yiliga 10 milliard so‘mlik metall buyum ishlab chiqarish quvvatiga ega korxona mahsulotlar tannarxini barqaror saqlashga xizmat qilyapti.

— Tumanimizda 2024-yilda umumiy qiymati 94,4 million dollarlik 61 ta loyiha ishga tushirildi, — deydi Karmana tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Dilshod Haydarov. — Natijada 2394 ta ish o‘rni ochildi. Ayni vaqtda 20 dan ziyod korxona 30 dan ortiq davlatga sanoat va meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilmoqda.

Rivojlanish iqtisodiyotga innovatsiya va yuqori texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq. Bu esa tadbirkordan izlanish va shijoat talab etadi. Ana shunday shijoat bilan ish boshlagan karmanalik tadbirkorlar safi kengayib bormoqda. Yaqinda shisha mahsulotlarni qayta ishlash korxonasi ish boshladi. Natijada yana 30 dan ziyod fuqaroning bandligi ta’minlandi.

— Korxonamiz 1 gektar yerda qurilgan, — deydi korxona rahbari Sardon Negmatov. — Ayni vaqtda korxonamizda toblangan oyna mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Bir kunda 1000 kvadrat metrdan ortiq energiya tejovchi turli rangdagi oynalarni ishlab chiqaryapmiz. Korxonamiz yaqinda ishga tushirilgan bo‘lsa-da, Qirg‘iziston va Tojikistonga mahsulot eksport qilyapmiz. Kelgusida eksport geografiyasini kengaytirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini ko‘paytirishni rejalashtirganmiz. Shisha mahsulotlarni qayta ishlashda katta tajribaga ega rossiyalik va xitoylik mutaxassislar korxonamizdagi ishchi-xodimlarga zamonaviy texnologiyalarni o‘rgatmoqda.

Karmanada xorijlik investorlar bilan ham samarali hamkorlik o‘rnatilgan. Turkiyalik mutaxassislar bilan ishga tushirilgan yana bir yirik korxona shular jumlasidan. 2 gektar maydonda Turkiyadan keltirilgan buta va mevali ko‘chatlar yangi usulda parvarishlanyapti. Yillik eksport imkoniyati 1 million dollar bo‘lgan ushbu loyiha to‘liq quvvatda ishga tushgach, 24 ta doimiy ish o‘rni ochiladi.

— Noyob ko‘chatlarimiz Navoiyda ilk bor parvarish qilinyapti, — deydi turkiyalik agronom Burak Churk. — Bu turdagi ko‘chatlar avval Toshkent viloyatidagi kichik maydonda sinovdan o‘tkazilgan edi. Navoiy viloyatida ham bu loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishimizga ishonamiz. Ko‘chatlar uchun maxsus tuvaklar shu yerning o‘zida buyurtma asosida tayyorlangan. Tuprog‘i Yevropadan olib kelingan. Ko‘chatlar maxsus suv tizimi orqali oziqlantiriladi. Ular may oyida Turkiyadan keltirilganida 10-15 santimetr uzunlikda edi. Sentyabrdan boshlab ko‘chatlar barqaror o‘sish holatiga kirdi. Ushbu ko‘chatlar mevaga kirganidan keyin 15-20 yilgacha hosil beradi. Bu meva tibbiyotda juda noyob va turli kasalliklarni davolashda qo‘llanadi. Kelgusida yana 2 va 4 gektar maydonda shunday ko‘chatlar parvarishlashni reja qilganmiz.

Karmana tumanidagi sanoat rivojida iqtisodiy zonalar faoliyati ham muhim o‘rin tutmoqda. Prezidentimizning o‘tgan yilgi tegishli qaroriga binoan “Navoiy sanoatni rivojlantirish kompleksi” maxsus sanoat parki tashkil etish uchun Karmanadagi “Navoiy” erkin iqtisodiy hududidan 40,5 gektar yer ajratilgan. Sanoat parkida joylashtirish uchun dastlab qiymati 251,3 million dollarlik 19 ta istiqbolli loyiha ro‘yxati shakllantirilgan. Jumladan, “Arnest Unigroup Navoiy” MCHJ tomonidan 2025-2026-yillarda qiymati 50 million dollarlik kosmetika va maishiy kimyo mahsulotlari ishlab chiqaradigan loyihaga start berildi. Natijada 200 ta yangi ish o‘rni ochiladi. Shuningdek, Xitoyning “Haier” kompaniyasi bilan hamkorlikda maishiy texnika ishlab chiqarish bo‘yicha qiymati 60 million dollarlik loyihani amalga oshirish yuzasidan muzokara olib borilmoqda. Bu loyiha amalga oshsa, 1600 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Karmanada xalqaro “Munis” loyihasi doirasidagi startaplar ham samarali faoliyat yuritmoqda.

— Jahon banki loyihasi bo‘yicha xalqaro grant mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan qator startap loyihalar amalga oshirilmoqda, — deydi Karmana tumani hokimining innovatsion rivojlanish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari O‘tkir Tillayev. — Arg‘un mahallasida “Kif trade 21” MCHJ tomonidan qiymati 115 ming dollarlik non va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi muvaffaqiyatli ish boshladi. Korxonada ishlab chiqarish jarayoni zamonaviy texnologiyalar asosida yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, Talqoq mahallasida “Grand Medical Center Klinika” MCHJ tomonidan qiymati 100 ming dollarlik zamonaviy tibbiyot uskunasi (UZI) xarid qilish startap loyihasi ham to‘liq ish boshladi. Klinikada zamonaviy diagnostika uskunalari orqali aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatilmoqda. Hozir ushbu ikki loyiha orqali 10 ta yangi ish o‘rni ochildi. Asosiysi, bu loyihalar tuman aholisi uchun yangi imkoniyatlar, sifatli mahsulot va xizmatlarni taqdim etmoqda.

Karmana ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati katta tumanlardan. Aholisi 143 ming kishidan oshdi. Bu, o‘z navbatida, odamlarni uy-joy bilan ta’minlash, yangi ish o‘rinlari ochish, infratuzilma bilan bog‘liq masalalarni ham keltirib chiqaradi. Shu bois, har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq dastur va rejalar tuzib olingan. Yangi g‘oya va tashabbuslar hamda istiqbolli loyihalar hududda ishlab chiqarish ko‘lami kengayishi, ish o‘rinlari ko‘payishida muhim omil bo‘lmoqda. Bugun hududda ishbilarmonlar safi kengayyapti. Umuman, ilm-fan, biznes va ishlab chiqarishning uyg‘unlashuvi natijasida Karmana innovatsion hududida g‘oyalar tayyor iqtisodiy loyihalarga aylantirilyapti. Hayotga tatbiq etilayotgan yangi loyihalar esa tuman aholisi uchun munosib yashash sharoiti yaratish va farovon turmush kechirishga xizmat qilmoqda.

**G‘olib ABDUSALOMOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# SALOHIYATLI KADRLAR – TIZIM TAYANCHI

*Yurtimizda so‘nggi yillarda harbiy kadrlarning sifat jihatidan yetuk va zamonaviy mutaxassis bo‘lib yetishishini ta’minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, joriy yilda Qurolli kuchlar akademiyasi isloh qilinib, uning negizida O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi.*

Nuqtayi nazar



**Alisher NAZAROV, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti professori**

Harbiy ta’lim tizimini takomillashtirishga doir bu tashabbus Xavfsizlik kengashining davlat harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlab O‘zbekiston Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 21-fevral kuni o‘tkazilgan yig‘ilishida ilgari surilgan edi. Shundan kelib chiqib, yigirmadan ziyod xorijiy davlatning ilg‘or tajribalari o‘rganilgan holda harbiy ta’limni isloh qilish bo‘yicha yangi milliy model ishlab chiqildi. Mudofaa vazirligining 5 ta instituti, Serjantlar tayyorlash oliy maktabi hamda Aviatsiya va uchuvchisiz uchish apparatlari mutaxassislarini tayyorlash markazi mazkur universitet tarkibiga o‘tkazildi. Bu esa markazlashgan vertikal tizim yaratilishiga olib kelib, qo‘shinlarning jangovar salohiyatini oshirish, dual ta’limni kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

Serjantlar tayyorlash oliy maktabida armiyaning asosiy tayanchi bo‘lgan serjantlarni o‘qitish, ularda yetakchilik qobiliyatini shakllantirish, zamonaviy qurollar va yangi taktik usullar bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirishning yangi tizimi joriy etildi. Yana bir yaxshi yangilik tor doiradagi ixtisosliklar bo‘yicha “2+2” tartibi yo‘lga qo‘yilgani bilan bog‘liq. Ya’ni psixolog, aloqachi, ta’minotchi, omborchi kabi 18 soha mutaxassisi boshqa oliy ta’lim muassasalarining ikkinchi bosqich talabalari orasidan saralab olinishi yo‘lga qo‘yildi.

Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy o‘quv yilidan bitiruvchi bosqich kursantlari uchun tanlov asosida Oliy Bosh Qo‘mondon davlat stipendiyasi ta’sis etildi. Stipendiya sohiblari bakalavriatni tamomlaganidan so‘ng 5 yil mobaynida oliy harbiy ta’lim muassasalari magistratura bosqichiga imtihonlarsiz qabul qilinishi belgilandi. Bu esa bitiruvchi kursantlarga oliy harbiy ta’limni chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi.

Yana bir e’tiborli jihati, endilikda oliy harbiy ta’lim muassasalarining 36 ta ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari bir yo‘la ikkita diplom — fuqarolik va harbiy kasbga mo‘ljallangan mutaxassislik egasi bo‘ladi. Bu ularning harbiy xizmatdan keyin ham faol ishlashiga zamin hozirlaydi.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetini tashkil etish jarayonida qator yangi kafedra va markazlar tashkil etildi hamda mazkur o‘quv yilidan boshlab yangi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yoshlarning o‘qishga qabuli amalga oshirildi. Universitetda 4 ta va okruglarda 6 ta okrug fakultetlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Universitetni tamomlagan malakali mutaxassislar mamlakatimiz qurolli kuchlari saflarida o‘z bilim va malakalarini ishga solgan holda yurtimiz mudofaasini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shishi shubhasiz.

Xorijiy harbiy kadrlarni tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, hozirgi kunda 100 dan ortiq xorijlik harbiy xizmatchi magistratura, bakalavriat bosqichida tahsil olmoqda. Shuningdek, universitetda doktorant va mustaqil izlanuvchilar ilmiy tadqiqotlar qilishi uchun yetarli sharoitlar yaratilgan.

Ushbu islohotlarga hamohang tarzda harbiy pedagoglarni saralash va tanlash tizimi ham kuchaytirilmoqda. Bugungi kundagi zamonaviy harbiy ta’lim tezkor jangovar harakatlarga muvofiq bo‘lgani holda professor-o‘qituvchilar tarkibiga qo‘yiladigan kasbiy talablar ham shunga mos bo‘lmoqda. Shu bilan birga, harbiy pedagoglarni yetakchi xorijiy davlatlarda o‘qitish tizimi ham yo‘lga qo‘yildi.

Harbiy kadrlarni tayyorlash va o‘quv jarayonini takomillashtirish uchun ta’lim standartlari davr talabiga mos ravishda yangilandi. Hozirgi kunda yangi texnologiyalar asosida kursantlarning fikrlash doirasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Bu jarayonda pedagoglarning pedagogik-psixologik imkoniyatlari, ijodiy fikrlashni rivojlantirib borishga xizmat qiluvchi ta’lim texnologiyalari ham qo‘llanilmoqda. O‘quv jarayonidagi o‘zgarishlar nafaqat nazariy, balki amaliyot bilan uyg‘unlashtirilmoqda.



Universitetda harbiy ta’limning innovatsion va an’anaviy usullarni o‘zaro birgalikda qo‘llash, o‘qitish jarayonini takomillashtirish zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Yangi tashkil etilgan Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti harbiy kadrlar tayyorlashda yagona, zamonaviy va tizimli yondashuv ta’minlanishiga zamin bo‘lmoqda. Serjantlar tayyorlashdan tortib, tor mutaxassisliklar, stipendiya va ikki diplom tizimigacha bo‘lgan mazkur o‘zgarishlar mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yuksaltirishda ayni muddaodir.

Farmon va ijro

# “HARAKATLAR MARKAZI”DAN “NATIJADORLIK MARKAZI”GA TRANSFORMATSIYA DAVRI

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

## XUSUSIY SEKTORNING ILG‘OR VA MUVAFFAQIYATLI HR TEXNOLOGIYALARI DAVLAT IDORALARIGA TATBIQ ETILADI

Bugungi shiddatli global iqtisodiy transformatsiyalar va ijtimoiy talablar davri davlat boshqaruvi tizimidan yuqori moslashuvchanlik hamda sifat jihatidan yangi formatda ishlashni talab etmoqda. Prezidentimizning 2025-yil 6-dekabrdagi “Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mazkur yo‘nalishdagi islohotlarni strategik jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Ya’ni hujjat asosida “harakatlar markazi”dan “natijadorlik markazi”ga transformatsiya davri boshlandi. Bu yangi tajriba.

Ushbu hujjat davlat boshqaruvi falsafasini “vazifa — funksiya — resurs — javobgarlik” zanjiri asosida tubdan yangilashga qaratilgan muhim qadamdir. Endilikda boshqaruv samaradorligi hisobotlar yoki bajarilgan topshiriqlar soni bilan emas, balki har bir qarorning jamiyat hayotidagi aniq ijobiy ta’siri va fuqarolar roziligi bilan baholanadi.

Farmonda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, davlat organlarida inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish maqsadida Boshqaruv samaradorligi agentligi hamda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) tashabbusi bilan davlat organlari hamda tashkilotlarining kadrlar bilan ishlash bo‘linmalari rahbarlari ishtirokida o‘quv-amaliy seminar va davra suhbatlari tashkil etilmoqda.



**Malika MAHMUDOVA,**
**FAOning gender masalalar bo‘yicha milliy konsultanti:**

— Bugun mehnat bozoridagi gender tafovut ayollarning daromad olish imkoniyatini cheklamoqda. Bunga baholashdagi stereotiplar, maoshdagi tengsizlik va eng muhimi, “onalik uchun jazo” kabi tushunchalar to‘siq bo‘lmoqda.

Fikrimcha, har qanday mamlakat iqtisodiy salohiyatini to‘la namoyon etishi uchun uchta asosiy islohotni amalga oshirishi zarur. Birinchidan, gender xolislik tamoyilini ta’minlash uchun kadrlar bilan ishlashning barcha bosqichlarini neytral qilish, ikkinchidan, maoshlarni shaffoflashtirish va rahbarlarning tenglikdagi shaxsiy mas’uliyatini kuchaytirish, uchinchidan, “onalik uchun jazo”ni bartaraf etuvchi mexanizmlarni joriy etish muhim. Shu ma’noda, farmonda boshqaruv samaradorligini oshirishda faqat ichki tartib-taomillar bilan cheklanmay, zamonaviy bozor tamoyillari va xususiy sektorning ilg‘or tajribasini qo‘llash amaliyoti ko‘zda tutilgani diqqatga sazovor.

Boshqaruv samaradorligi agentligi hamda O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi o‘rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi esa davlat va biznes sherikligining yangi modelini boshlab berdi. Ushbu model davlat idoralariga “Top-100” kompaniyalar tajribasi asosida eng zamonaviy HR texnologiyalarni olib kirish va byurokratik to‘siqlarni raqamli yechimlar orqali bartaraf etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.



**Shahlo IBRAGIMOVA,**
**Savdo-sanoat palatasi raisi o‘rinbosari:**

— Bu sa’y-harakatlar “vazifa — funksiya — resurs — javobgarlik” zanjirining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biz biznesning tezkorligi va davlat boshqaruvining strategik yondashuvini birlashtirib, zamonaviy boshqaruv madaniyatini shakllantirmoqchimiz. Shu maqsadda Toshkent shahridagi “Texnopark” faoliyati, “Artel” kompaniyasining HR texnologiyalarni joriy etish tajribasi hamda “AKFA Group” kompaniyalar guruhining boshqaruv tizimi bilan yaqindan tanishdik.

Shuningdek, hrm.gov.uz platformasi tarkibida joriy etilayotgan yangi modul — kadrlarni tanlashda innovasion yechimlar taqdimot qilindi. U davlat xizmatida HR jarayonlarni raqamlashtirish, shaffof rekruting, kompetensiyaga asoslangan tanlov hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan.



**Qudrat MURODOV,**
**Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Inson resurslarini boshqarish bo‘linmasi mas’ul xodimi:**

— Bu galgi o‘quv-amaliy seminar an’anaviy formatdan farq qilishi va amaliy tashriflarga boyligi bilan ajralib turdi. Auditoriyadan chiqib, ilk marotaba xususiy sektorning ilg‘or tajribasi bilan bevosita tanishdik. Xususan, “Texnopark” majmuasida xodimlarni saralash, ishga qabul qilish va rivojlantirish jarayonlari yaxlit HR sikl asosida tashkil etilgan bo‘lib, eng samarali yondashuvlar qo‘llanilmoqda.

Xodimlarni tanlash bosqichida kompetensiyaga asoslangan baholash usullari joriy etilgan. Nomzodlar salohiyati test sinovlari, professional suhbatlar va amaliy topshiriqlar orqali xolis baholanadi. E’tiborli jihati, ishga qabul qilish jarayonlari to‘liq raqamlashtirilgan bo‘lib, hujjatlar onlayn formatda qabul qilinishi byurokratiyani keskin kamaytirgan.

Bevosita ishlab chiqarish gigantlari va innovatsion xablar muhitida tajriba almashish imkoniyati mazkur dasturning zamonaviy o‘quv standartlariga to‘liq mutanosib ekanidan dalolat. Biz nafaqat nazariy bilim oldik, balki yuqori texnologiyali biznes muhitida HR strategiyalar qanday qilib iqtisodiy natijadorlikka aylanishini o‘z ko‘zimiz bilan kuzatdik.



**Jalol TO‘XTAYEV,**
**Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi boshlig‘i:**

— Kadrlar bilan ishlash jarayoni to‘liq avtomatlashtirilishi nafaqat byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi, balki shaffoflik va hisobdorlikni ham ta’minlaydi. Inson kapitalini boshqarish tizimiga bunday innovatsion va ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlarni tatbiq etish suv xo‘jaligida boshqaruv samaradorligini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga yordam beradi.

Mazkur uchrashuv va muloqotlar davlat boshqaruvini sifat jihatidan yangilash yo‘lidagi muhim konseptual qadam bo‘ldi. Davra suhbatlari nafaqat soha mutaxassislari kompetensiyalarini oshirishga, ayni vaqtda davlat xizmatida proaktiv boshqaruv modellarini va natijadorlikka asoslangan yangi korporativ madaniyatni shakllantirishga xizmat qildi. Belgilab olingan ustuvor vazifalar esa, hech shubhasiz, sohada o‘zini oqlamayotgan metodlardan voz kechib, eng zamonaviy HR texnologiyalarga o‘tish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Asliddin ABDURAZZOQOV tayyorladi.**

Islohot odimlari

**Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi kelgusi yilda O‘zbekiston iqtisodiyotida kamida 6 foiz o‘sishni prognoz qilmoqda. Ochiqlik siyosatini yuritayotgan O‘zbekistonga hamkor mamlakatlar va investorlarning sarmoya kiritishga qaratayotgan e’tibori tufayli yalpi ichki mahsulot hajmi ortadi. Xorijiy davlatlar bilan manfaatli hamkorlik O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘sishi, rivojlanishi, investitsiya hajmi ortishi, eksport-import operatsiyalaridagi sezilarli o‘zgarishlar va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad oshishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Rossiya, AQSH, Xitoy, YI va boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarni birdek yo‘lga qo‘ydi. Masalan, joriy yilning iyun oyida Bryusselda O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Bu tarixiy voqeadir. Chunki mazkur hujjat rasmiy Toshkentning ko‘p vektorli diplomatiya modelidan o‘zaro bog‘liqlikning yangi modeliga o‘tishini anglatadi.**





# KAPITAL BOZOR ARXITEKTURASI

## TASHQI SAVDO GEOGRAFIYASINI KENGAYTIRADI

**Mash’al SAIDOV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda Yevropa Ittifoqining O‘zbekistonga kiritgan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalari

43 foiz o‘sdi, Yevropa bilan savdo aylanmasi esa umumiy savdoning qariyb 10 foizini tashkil etmoqda. Yevropa Ittifoqi bilan tuzilgan bitim O‘zbekistonga Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish yo‘lini ham ochadi.

Ayni paytda O‘zbekiston Xitoy bilan mustahkam sheriklik munosabatlarini rivojlantirishda davom etmoqda. 2024-yilda ikki tomonlama tovar ayirboshlash 14 milliard dollardan oshdi. Shu yilning 2-sentabr kuni Pekin shahrida O‘zbekiston

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Raisi Si Szinpinning muzokaralari bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Savdo-iqtisodiy, texnologik va moliyaviy-investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Investitsiya loyihalari portfeli 60 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda. 2024-yilda umumiy qiymati 10 milliard dollardan ortiq 64 ta loyiha ishga tushirilgan. Mamlakatimiz hududlarida qo‘shma texnoparklar va maxsus industrial zonalar faoliyat yuritmoqda, “BYD” elektromobillarini ishlab chiqarish kengaytirilmoqda va mahalliylashtirish darajasi oshirilmoqda. “Yashil” energetika va energiya samaradorligini oshirish, jamoat transportini modernizatsiyalash, raqamlashtirish, pulli avtomobil yo‘llarini barpo etish, muhim minerallarni chuqur qayta ishlash, shuningdek, kimyo, suv va qishloq xo‘jaligi, turizm hamda shaharsozlik sohalarida istiqbolli loyihalar ishlab chiqilgan. Hududlararo almashinuvlar faollashdi. Xitoy tajribasi asosida mamlakatimizda kambag‘allikka barham berishga qaratilgan qo‘shma tadbirlarni amalga oshirishda ekspertlik ko‘magi davom ettiriladi. Innovatsion loyihalarni ilgari surish va mutaxassislar tayyorlash uchun O‘zbekiston — Xitoy sun’iy intellektni rivojlantirish markazini tashkil etish taklif qilindi.

O‘zbekiston Prezidentining AQSHga tashrifi ham ikki tomonlama munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilayotganidan dalolat beradi. Ushbu tashrif yakunlari bo‘yicha kelgusi hamkorlik uchun aniq yo‘nalishlar belgilab olindi. O‘zbekiston Prezidentining AQSHga tarixiy safari mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirib, Markaziy Osiyo mintaqasining global jarayonlardagi ishtirokini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston o‘zining kapital bozorlari arxitekturasini G‘arb normalariga moslashtirishga intilmoqda va aktivlar bilan ishlaydigan mashhur Franklin Templeton kompaniyasi bilan birgalikda Milliy investitsiya fondini tashkil etdi. Bu fond qator davlat mulklarini xususiylashtirish bilan shug‘ullanmoqda. Samarasiz davlat korxonalarini xususiylashtirish allaqachon natijalar berdi. Chunki xorijiy investorlar tobora ko‘proq jalb qilinmoqda. NASDAQ O‘zbekiston fond birjasini modernizatsiya qilish yo‘llarini o‘rganmoqda. O‘zbek banklari va davlat korxonalari esa Citigroup yordamida xalqaro fond birjalariga muvaffaqiyatli joylashtirildi. Natijalar yaqqol ko‘rinib turibdi. Boeing bilan 22 ta samolyot uchun 8,5 milliard dollarlik shartnoma imzolandi. Air Products O‘zbekistonda sanoat kimyosi va gaz sohasida strategik loyihalarni amalga oshirmoqda. AQSHning 300 dan ortiq kompaniyasi O‘zbekistonda faoliyat yuritmoqda.



> **Investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslarni, balki ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari va xalqaro standartlarni ham olib kirmoqda. Xorijiy sarmoyalar sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, axborot texnologiyalari kabi qator sohalarni modernizatsiyalashga, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga va mavjudlarini texnik qayta jihozlashga xizmat qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yalpi ichki mahsulot o‘sishining asosiy omillaridan biriga aylandi.**

Rossiya ham O‘zbekiston uchun muhim, ustuvor strategik sherik va ittifoqchi. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stona hamda ishonchli munosabatlar bunday hamkorlikning mustahkam asosi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Rossiyaning yetakchi kompaniyalari bilan sanoat bo‘yicha sheriklikni faol kengaytirmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda Rossiya kapitali yoki mamlakatimiz fuqarolari muassislari bo‘lgan

3000 dan ortiq korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, Rossiya biznesi an’anaviy eksport modelidan ishlab chiqarishni mahalliylashtirish kabi murakkab mexanizmlarga o‘tishni boshladi.

Markaziy Osiyo davlatlari sa’y-harakati bilan mintaqada yangi iqtisodiy voqelik shakllanmoqda. So‘nggi sakkiz yil davomida mintaqa mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar o‘sib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo hajmi esa ikki karradan ziyod ko‘payib, 253 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, mintaqa davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 2 marta oshib, qariyb 11 milliard dollarga, o‘zaro investitsiyalar esa 5,6 barobar ortdi. Birgina O‘zbekistonning mintaqa davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliard dollardan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga yetdi, qo‘shma korxonalar soni esa 1800 dan oshdi. Sanoatda Markaziy Osiyo barqaror ravishda yiliga

6 foiz atrofidagi o‘sishni namoyish etmoqda, bu jahondagi o‘rtacha o‘sish sur’atidan ikki karra yuqori. Bunday muvaffaqiyat ishlab chiqarish kooperatsiyasining yangi shakllarini yo‘lga qo‘yish — qo‘shma investitsiya fondlarini tashkil etish, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik sanoati, qishloq xo‘jaligi sohalarida loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq. Mintaqa mamlakatlari tomonidan tasdiqlangan 2025-2027-yillarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha harakatlar rejasi hamkorlikning muhim vositasiga aylanmoqda. Kichik va o‘rta biznesning o‘sishiga ko‘maklashadigan chegaraoldi savdo zonalari va xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazlari faol rivojlanmoqda.

Prezidentimizning xorijiy tashriflari davomida erishilgan eng muhim yutuqlardan biri O‘zbekistonga kirib kelayotgan bevosita xorijiy investitsiya hajmi keskin oshishidir. Ilgari nisbatan yopiq bo‘lgan iqtisodiyot endilikda xorijiy sarmoyadorlar uchun ochiq va jozibador maydonga aylandi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiya, jumladan, xorijiy sarmoyalarning ahamiyati juda katta.

XXI asrning dastlabki choragida iqtisodiyotning globallashuv jarayonlari o‘ziga xos davrga aylandi. Mamlakatda iqtisodiy o‘cishni jadallashtirish, aholining turmush farovonligini oshirib borish jahon bozoriga chiqish, uning ustunliklaridan foydalanishni talab qiladi. Jahon bozorida xalqaro iqtisodiy munosabatlarni muvaffaqiyatli yuritish, ichki va tashqi bozorda milliy tovarlar raqobatbardoshligini oshirish uchun turli ko‘rinishdagi xorijiy investitsiyani milliy iqtisodiyotga jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi besh yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiya hajmi bir necha baravar oshgan. Agar 2017-yilda bevosita xorijiy investitsiya hajmi 2,4 milliard AQSH dollariga yetgan bo‘lsa, joriy yil 35 milliard dollar bo‘ldi. Eksport 27 milliard dollarni tashkil etib, o‘tgan yildagiga nisbatan 31 foiz ko‘paydi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar samarasi xalqaro reytinglarda ham munosib aksini topmoqda. “Iqtisodiy erkinlik indeksi”dagi O‘zbekiston o‘rni so‘nggi besh yilda 48 pog‘ona yuqori ko‘tarildi. Garvardning “Iqtisodiyot murakkabligi indeksi”da mamlakatimiz o‘rni 28 pog‘onaga yaxshilandi. Nufuzli “S&P” agentligi O‘zbekistonning suveren reytingi prognozini “barqaror”dan “ijobiy”ga oshirdi.

Investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslarni, balki ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari va xalqaro standartlarni ham olib kirmoqda. Xorijiy sarmoyalar sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, axborot texnologiyalari kabi qator sohalarni modernizatsiyalashga, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga va mavjudlarini texnik qayta jihozlashga xizmat qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yalpi ichki mahsulot o‘sishining asosiy omillaridan biridir.

Faol tashqi siyosat savdo geografiyasi va tarkibini sezilarli darajada kengaytirdi. Prezidentimiz tashriflari davomida imzolangan savdo bitimlari, erkin savdo hududlarini tashkil etish bo‘yicha kelishuvlar va tarifsiz to‘siqlarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar eksport hajmi o‘sishiga va yangi bozorlarga chiqishga imkon berdi. O‘tgan davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti ikki karra o‘sgani bunda muhim omil bo‘ldi. Shu yil yakuni bilan aholi jon boshiga daromad 3,5 ming dollarga yetishi kutilmoqda.

Albatta oʻqing!

# Ta’bir izohati

## (“Soʻz xususida soʻz” kitobidan)








### II

Ba’zilar “chigit ekildi” degan ma’noda “baraka urugʻi tikildi”, “urugʻ qadaldi” degan iboralarni ishlatadi. Holbuki, xalqimiz uruqqa, jumladan, chigitga nisbatan “tikmak” va “qadamoq” fe’llarini ishlatmaydi. Buni ulugʻ shoir va yozuvchilarimiz qilmaydi. Chunki buning zararli bir tomoni bor. Bu shundan iboratki, buni eshitgan bolalar mazkur fe’llarning ma’nosi haqida yanglish tasavvur hosil qiladi. Natijada maxsus soʻzlarning ahamiyati yoʻqolib, nutq kambagʻallashib va noaniqlashib boradi. Mazkur oʻrtoqlar oʻzicha biz nutqimizni rang-barang qilyapmiz, uni badiiylashtiryapmiz deb oʻylasa kerak. Lekin rang-baranglikning oʻrni, vaqti va chegarasi bor. Yoz chillasida yangi kelin har kuni yoki bir kunning oʻzida koʻylagini yangilashi mumkin, lekin sepimni koʻrsataman deb koʻylakni pidjak yubka bilan almashtirmaydi. “Chigit ekdi” yoki “urugʻ sochdi” deyish oʻrniga nutqni rang-barang qilaman deb “urugʻ tikdi yoki qadadi” degan oʻrtoqlar yoz chillasida koʻylakni palto bilan almashtirgan kishiga oʻxshaydi.

“Qadamoq” fe’li umuman ekishga nisbatan ishlatilmaydi. “Tikmak” fe’li koʻchatga nisbatan ishlatiladi. Chunki uning ma’nosi tikka qilib qoʻymoqdir. Binobarin, bu fe’l bayroqqa nisbatan ham ishlatiladi. Bayroq tikdi yoki tikildi, deyiladi. “Ekmak” fe’li esa uruqqa ham koʻchatga nisbatan ishlatiladi.

* * *

“Ayni” soʻzini suiiste’mol qilish hollari ham bor. Aslan “ayni” soʻzi xuddi shu, shuning oʻzida degan ma’nolarda ishlatiladi. Masalan, ayni zamonda, xuddi shu zamonda, shu zamonning oʻzida yoki bir zamonning oʻzida degani. Ba’zan “ayni” soʻzini “shu” soʻzining oʻrnida qoʻllaydilar, masalan, “shu kunlarda” oʻrnida “ayni kunlarda” deydilar. Bu toʻgʻri emas. Avval boshqa bir hodisaning shu kunlarda sodir boʻlganini tilga olmay turib, masalan, “ayni kunlarda paxta terimi qizgʻin bormoqda”, deb boʻlmaydi. Bu holda “shu kunlarda” deyish kerak. “Hozir paxta terimi boshlandi, ayni zamonda hosil paxta punktlariga topshirilmoqda”, deganda “ayni” soʻzi toʻgʻri ishlatilgan boʻladi.

* * *

Ba’zan sport sharhlovchilarining ogʻzidan “qilichbozlar bahsi” yoki “bellashuvi”, “parashyutchilar bahsi” yoki “aviamodelchilar bellashuvi” kabi iboralarni eshitish mumkin. Hozir xayolingizga oʻsha oʻrtoqlar musobaqa soʻzini haddan ortiq takrorlamaslik, nutqni rang-barang qilish uchun “bahs” va “bellashmak” soʻzlariga murojaat qilgan boʻlishi mumkin degan fikr keldi.

Bu toʻgʻri fikr. Qaytariqlardan qochish, ma’nodosh soʻzlardan iloji boricha toʻliq foydalanish kerak. Lekin har bir soʻzning oʻz oʻrni va sinonimlardan foydalanishning qoidasi bor. Masalan, “bellashuv”ni koʻchma ma’noda ishlab chiqarishda musobaqalashayotgan ikki shaxsga nisbatan ishlatish mumkin. Agar ularning ishi jismoniy kuch talab qiladigan kasb boʻlsa, juda oʻrinli boʻladi. Ammo “shaxmatchilar bellashdi”, deyish toʻgʻri boʻlmaydi. Chunki shaxmatga bel kuchi kerak emas. Binobarin, “shaxmatchilar bellashdilar” degan gapdan ular shaxmatni qoʻyib fargʻonacha, ya’ni bel ushlashib kurashdi degan mazmun chiqadi. Agar ular shaxmatda bellashdi, deyilsa, shaxmatbozlik anglashiladi, lekin baribir jumla aybli boʻladi.

Bahs esa ogʻzaki tortishuvdir. Oʻzbekchada “qilichbozlar bahsida falonchi gʻalaba qozondi” deyilsa, bundan oʻsha falonchi qilichbozlikda emas, ogʻzaki olishuvda gʻalaba qozonibdi degan ma’no chiqadi. Shuningdek, “parashyutchilar bahsi” deyilsa, bundan parashyutchilar bir yerga yigʻilib, biror masala yuzasidan munozara qilishibdi degan fikr tugʻiladi.

“Shaxmat musobaqasi” degan iborani “shaxmat oʻyini”, “shatranj oʻyini”, “shaxmatbozlik”, “shatranjbozlik”, “shaxmat surishish”, “shatranj tortishuvi”, “shaxmat olishuvi” va hokazo soʻz va iboralar bilan almashib ishlatish mumkin. Shuncha soʻz boʻlgani holda “bahs” yoki “bellashmak” soʻzini suiiste’mol qilishga hojat yoʻq.

Agar adabiy va xalq tiliga murojaat qilsak, kerakli ma’nodosh soʻzlarni koʻplab topishimiz va ulardan oʻz nutqimizda samarali foydalanishimiz mumkin. Masalan, oʻzbek adabiy tili va ba’zan shevalarda “musobaqa qilmoq” ma’nosida “yorishmoq” va “oʻzishmoq” fe’llari ishlatiladi.

Bu sohada tilimizning imkoniyati katta. Chunki oʻzbek tilida musobaqa ma’nosini anglatuvchi maxsus qoʻshimcha ham bor. Bu “sh” qoʻshimchasi boʻlib, uni istagan fe’lga qoʻshib musobaqa ma’nosini ifoda qilish mumkin. Masalan, “yugurishish” — yugurish musobaqasi, “otishish” — otish musobaqasi, “suzishish” — suzish musobaqasi, “ot chopishish” — ot poygasi degani.

Endi mana shu aytilgan fikrlar asosida ba’zi musobaqa turlariga oid ma’nodosh soʻzlarni namuna tarzida sanab oʻtamiz.

Avtomobil musobaqasi ma’nosida “avtomusobaqa”, “avtooʻzish”, “avtopoyga”, “avtoyorish” soʻzlarini almashlab ishlatish mumkin. Albatta, “avtomobil musobaqasi”, “avtomobil poygasi”, “avtomobil yorishuvi”, “avtomobil haydash” tarzidagi iboralardan tashqari. Shu yerda yana bir jihatni ta’kidlab oʻtish kerak. Bu oʻzbek tili nuqtayi nazaridan mazkur tipdagi iboralarda “boʻyicha” degan soʻzning, masalan, “avtomobil musobaqasi boʻyicha” yoki “shaxmat birinchiligi boʻyicha” yoki “yugurish boʻyicha” deb ishlatilishi oʻrinsizdir.

**Oʻzbek tilida birlik formasidagi ot hamma holda bir predmetni bildirmaydi. Shuning uchun bir kishi agar mingta kitob olsa ham “kitob oldim”, deydi. Agar bittaligini ta’kidlash kerak boʻlsa, “bitta kitob oldim”, deydi. Agar kitob tinglovchiga ma’lum bir kitob boʻlsa, “kitobni oldim”, agar noma’lum boʻlsa, “bir kitob oldim”, deydi.**

“Konkida yugurish” degan va shunga oʻxshash iboralar ham gʻayritabiiy. Buning oʻrniga “konki poyga”, “yaxmalakpoyga”, “konkioʻzish” deyish mumkin. Bundan tashqari, xalq tilida “yaxmalak otish”, “konki otish”, “yaxmalak uchish” va “konki uchish” degan iboralar ham bor.

“Figurali uchish” ham ma’qul iboralardan emas. Bu “yaxmalakoʻyin” yoki “konkioʻyin”, deyilsa, til qoidalariga mosroq boʻladi.

Demak, boshqa tillarda boʻlganidek oʻzbek tilida ham ma’nodosh soʻzlar koʻp ekan, lekin soʻzlovchidan ularni yaxshilab bilib olish va oʻz oʻrnida ishlatish talab qilinadi. Agar soʻz xilof ravishda qoʻllansa, bu aybdir. Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, maxsus ilmiy asarlarda odatda bir terminni uning ma’nodoshlari bilan almashlab qoʻllashdan qochiladi. Chunki ilmiy asarlarda aniqlik birinchi oʻrinda turadi. Masalan, biror sportshunoslikka oid ilmiy asarda boks tushunchasi doim, necha marta takrorlanishidan qat’i nazar, “boks” soʻzi bilan ifodalana beradi. Ammo ommaviy, xususan, badiiy nutqda ma’nodosh soʻzlardan qancha toʻlaroq foydalanilsa, nutq shuncha goʻzal tus oladi.

Gʻayriilmiy nutqda, masalan, bir gapda “qilichbozlik qildilar”, ikkinchisida “qilich solishdilar”, uchinchisida “qilichlashdilar” deyish mumkin. Ammo ilmiy matnda, masalan, “qilichbozlik” soʻzi sport turiga nisbatan, “qilichlashmoq” soʻzi musobaqadagi konkret harakatga nisbatan, “qilich solmoq” va “sanchmoq” fe’llari konkret zarba va uning turlariga nisbatan qoʻllanishi mumkin. Bunda bu soʻzlarning birini ikkinchisi bilan almashtirib boʻlmaydi. Bu holda soʻzlarni ma’nodoshlari bilan almashtirish ilmiy xatoga sabab boʻlishi mumkin.

* * *

Endi sharq filologlari “xilofi qiyos” deb atagan nutq aybining oʻzbek nutqida ba’zan uchraydigan bir necha koʻrinishi bilan tanishamiz. Soʻz yasalishi va oʻzgarishiga oid qoida “qiyos” deyiladi. Shuning uchun “xilofi qiyos” deganda nutqda soʻz formalarining til qoidasiga xilof ravishda bilib yoki bilmay ishlatishi tushuniladi.

Shu kunlarda ba’zan keraksiz oʻrinlarda “lar” qoʻshimchasini ishlatish hollari yuz bermoqda. Masalan, men mana shunday gaplarni eshitganman yoki oʻqiganman:

1. Gabrovaliklar kaptarlarni yaxshi koʻrishadi.

2. Bu xonanda ijrosida bir necha qoʻshiqlar eshiting.

3. Hozir bu yerda oʻn mingdan oshiq timsohlar boqilmoqda.

4. Oltin qumlarda dam oldik va hokazo.

Bu gaplarning birinchisida “kaptarlarni” emas, “kaptarni”, ikkinchisida “qoʻshiqlar” emas, “qoʻshiq”, uchinchisida “timsohlar” emas, “timsoh”, toʻrtinchisida “oltin qumlar” emas, “oltin qum” boʻlishi kerak edi. Chunki birinchi gapda xabar tinglovchiga ma’lum boʻlgan kaptarlar haqida emas, umuman kaptar haqidadir. “Kaptarlaring qani?” yoki “kaptarlarimni ber!” deganda “lar” ishlatiladi. Sababi bunda soʻzlovchi bilan tinglovchiga ma’lum boʻlgan kaptarlar nazarda tutiladi.

Turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida otning oldida son boʻlganda, unga “lar” qoʻshimchasi qoʻshilmaydi. Masalan, “toʻrt yoki toʻrtta yigitlar” deb boʻlmaydi. “Toʻrt yigit” yoki “toʻrt nafar yigit” deyish joizdir. “Yigit” soʻzi “lar”siz va “toʻrt” “ta”siz ishlatilsa yoki “ta” oʻrnida “nafar” soʻzi iste’mol qilinsa, nutq odobiga muvofiq boʻladi.

Oʻzbek tilida birlik formasidagi ot hamma holda bir predmetni bildirmaydi. Shuning uchun bir kishi agar mingta kitob olsa ham “kitob oldim”, deydi. Agar bittaligini ta’kidlash kerak boʻlsa, “bitta kitob oldim”, deydi. Agar kitob tinglovchiga ma’lum bir kitob boʻlsa, “kitobni oldim”, agar noma’lum boʻlsa, “bir kitob oldim”, deydi.

“Lar” qoʻshimchasi oʻzbek tilida tinglovchiga ma’lum boʻlgan narsa birdan ortiq boʻlganda ishlatiladi. Masalan, siz menga “falon, falon kitoblarni oling”, desangiz, men shu kitoblarni olsam, sizga “kitoblarni oldim”, deyman. Siz bundan men oʻsha siz tavsiya qilgan kitoblarni olganimni anglaysiz.

Bundan tashqari, “lar” qoʻshimchasi hurmat, turlilik va mubolagʻa uchun ham ishlatilishi mumkin. Masalan, “dadamlar” deganda hurmatni ifodalaydi, “yuraklarim qon boʻldi”, deganda “lar” mubolagʻani bildiradi. “Bogʻimizda mevalar pishdi” deganda turlilikni anglatadi. “Lar”ning oʻrinsiz ishlatilishida qisman tajribasiz tarjimonlarning hissasi bor. Buni yosh tarjimonlarimiz hisobga olib qoʻyishi kerak. Koʻplik formasining ishlatilishi turli tillarda turlichadir.

Ot oldida birdan ortiq son kelganda koʻplik qoʻshimchasini qoʻshish ingliz tiliga xos. Rus tilida esa ikki, uch, toʻrt sonlaridan keyin ot birlikda, lekin qaratqichda beriladi. Masalan, “dve knigi”, ya’ni “kitobning ikkisi” deyiladi va bu mazmunan oʻzbekchadagi “ikkita kitob”ga toʻgʻri keladi. Beshdan yuqori sonlardan soʻng kelgan ot esa qaratqichning koʻpligida beriladi. Oxiri bir, ikki, uch va toʻrt sonlari bilan tugagan koʻp xonali sonlar mustasno. Masalan, “pyat knig”, ya’ni “kitoblarning beshi” deyiladi va oʻzbekchadagi “beshta kitob”ga mos keladi.

* * *

“Lar” va “ham” qoʻshimchalari keraksiz oʻrinda ishlatilsa, “ning” qoʻshimchasini ba’zan tushirib qoldirish hollari uchramoqda. Masalan, quyidagi gap va iboralarda qaratqich qoʻshimchasi — “ning” nooʻrin tushirib qoldirilgan:

“Bu qishloqlar aholisi aloqaning antiqa yoʻlini oʻylab topdi”. Bu gapda “bu qishloqlar aholisi” emas, “bu qishloqlarning aholisi” boʻlishi kerak edi. Jurnallardan birida “Zaharli oʻrgimchaklar kushandalari” degan sarlavha berildi. Bunda “oʻrgimchaklar” emas, “oʻrgimchaklarning”, “zaharli oʻrgimchaklarning kushandalari” deyilsa, toʻgʻri boʻlar edi.

Qaratqichning “ning”li va “ning”siz formalarining ma’no jihatdan farqi bor. Mazkur ayb shuni farq qilmaslik natijasida vujudga kelgan. Ikki xil ma’noga ega ikki formaning bir xil deb tasavvur qilinishiga qisman tilchilarimiz sababchi boʻlgan. Maktablarda, hatto oliy oʻquv yurtlarida sintaktik tahlilda “ning”siz qaratqichni oʻqituvchilar “ning”ni qoʻshib boʻlmaydigan oʻrinlarda ham, bu yerda “ning” tushib qolgan, aslida, “ning” boʻlishi kerak edi deb tushuntiradi. Holbuki, masalan, “maktab direktori” birikmasi bilan “maktabning direktori” birikmasi orasida farq bor.

Bularning birini ikkinchisining oʻrnida ishlatib boʻlmaydi. Agar men bir maktabga borib, shu maktabning direktorini koʻrmoqchi boʻlsam, “maktabning direktori kim?” deb soʻrayman. Agar bir necha kishi orasida direktor lavozimiga ega boʻlgan kishini, qaysi maktabnikiligidan qat’i nazar, bilmoqchi boʻlsam, “maktab direktori kim?” deb soʻrayman. Birinchi holda “ning”ni tushirib boʻlmaydi, ikkinchi holda qoʻshib boʻlmaydi. Muayyan maktab nazarda tutilsa, “ning” qoʻshiladi, nomuayyan boʻlsa, qoʻshilmaydi.

Demak, “bu qishloqlar” deganda “qishloqlar” muayyan boʻladi. Shuning uchun unga “ning” qoʻshimchasi qoʻshiladi. “Bu qishloqlar aholisi” deb boʻlmaydi, “bu qishloqlarning aholisi”, deyish kerak. Agar muayyan qishloq nazarda tutilmay, “qishloq” “aholi”ning sifati qilib olinsa, “ning” qoʻshilmaydi. Unda “qishloq aholisi”, deymiz. Masalan, “bizda qishloq aholisining turmush darajasi chet ellardagiga nisbatan yuqori” degandagi kabi.

* * *

Endi “n” qoʻshimchasini qoidaga xilof ravishda ishlatish holatlariga toʻxtaymiz. “N” qoʻshimchasini undosh bilan tugagan fe’llarga qoʻshganda, uning oldida “i” yoki “u” unlisi paydo boʻladi. Eski oʻzbek tilida agar fe’lning oʻzagida lablangan unli, ya’ni “u” yoki “oʻ” boʻlsa, “n” oldida paydo boʻladigan unli lablangan holda, ya’ni “u” shaklida boʻlgan. Agar fe’lning oʻzagida lablanmagan unli i, a, e, o unlilaridan biri boʻlsa, “n” oldida paydo boʻladigan unli lablanmagan shaklda, ya’ni “i” shaklida boʻlgan. Talaffuz qilganda lab choʻchchayadigan unlilar “lablangan” unli, lab choʻchchaymaydiganlari “lablanmagan” unli deyiladi. Oʻzbek tilida “u” va “oʻ” unlilari lablangan, qolganlari lablanmagan. “O” unlisi Samarqand va Buxoro shevalarida bir oz lablangan, boshqa shevalarda va adabiy tilda esa lablanmagan. “O” unlisi Namangan shevasida ham ba’zan lablanadi.

Oʻzakda lablangan unlining qoʻshimchada lablangan unlini va lablanmagan unlining lablanmagan unlini talab qilishi “lab uygʻunligi” yoki “lab garmoniyasi” yoxud “labial attraksiya” deb ataladi.

Eski oʻzbek tilida “n” qoʻshimchasi oldidagi unli lab uygʻunligiga boʻysungan. Masalan “bil” fe’liga “n” qoʻshimchasi “in” tarzida qoʻshilgan, ya’ni “bilin” deyilgan, “koʻr” fe’liga esa, “un” tarzida qoʻshilgan, ya’ni “koʻrin” emas “koʻrun” deb aytilgan. “Bilindi” deganda “n” qoʻshimchasining “in” tarzida va “koʻrundi” deganda “un” shaklida boʻlishini lab uygʻunligi taqozo qiladi. Hozir oʻzbek tilida lab uygʻunligi yoʻqolgan. Ammo qirgʻiz tilida kuchaygan. Chunki qirgʻizlar, masalan, “oʻquvchi” soʻzini “oʻquchu” deb, “yoʻllarda” degan soʻzni “yoʻlloʻrdoʻ” deb aytadi. Qirgʻiz tilida qadimgi va eski turkiy tillarda unlilar lablanmaydigan oʻrinlarda ham hozir lablanadigan boʻlgan. Oʻzbek tilida esa lablanadigan oʻrinlarda ham lablanmaydigan boʻlgan. Lekin ba’zi oʻrinlarda qoldiq sifatida saqlangan.

Bu “n” qoʻshimchasini ishlatishdagi ayb, uni keraksiz oʻrinlarda ham iste’mol qilishdan iborat. “Boshlamoq”, “kelmak” kabi fe’llar koʻmakchi boʻlib kelganda majhul harakatni bildirish uchun majhullik qoʻshimchasi asosiy fe’lga qoʻshilib, koʻmakchi fe’lga, jumladan, “boshlamoq” yoki “kelmak” fe’liga qoʻshilmaydi. Binobarin, men eshitgan va boshqalar ham yana eshitishi yoki oʻqib qolishi mumkin boʻlgan quyidagi gaplardagi “n” qoʻshimchasi til nuqtayi nazaridan ortiqchadir.

1. Hayot ildizi ekila boshlandi.

2. Choʻllar oʻzlashtira boshlandi.

3. Qovoq urugʻi qadimdan qoʻllanib kelingan.

4. Paxta terila boshlandi.

Toʻgʻrisi “Hayot ildizi ekila boshlandi” emas “ekila boshladi” boʻladi. “Choʻllar oʻzlashtira boshlandi” emas, “oʻzlashtirila boshladi”, deyiladi. “Qovoq urugʻi qadimdan qoʻllanib kelingan” emas, “qoʻllanib kelgan”, deyilishi kerak. “Paxta terila boshlandi” emas, “terila boshladi”, deyish lozim.

* * *

Azizu muhtaram oʻquvchi, hayotda adashmaslik va undan samarali foydalanish uchun ma’rifat kerak. Shuning uchun soʻz xususidagi soʻzimizni “ma’rifat” soʻzining izohi bilan yakunlaymiz.

“Ma’rifat” soʻzi bilish va bilim turini bildiradi. Bilim bir narsani aniqlash yoki bir ishni bajarish uchun kerakli ma’lumot. Bilish esa shunday ma’lumotga ega boʻlib, undan foydalana olishdir. Ma’rifat ham bilishni, ham bilimni qamrab oladi. Lekin har qanday bilish va bilim “ma’rifat” deb atalmaydi. Ma’rifat oliy darajadagi bilish va bilimdir. Suvning chanqaganda ichiladigan narsa ekanini yosh bola ham biladi. Demak, u suv haqida sodda bilimga ega. Bunday bilimni “ma’rifat” deb boʻlmaydi. Suv haqida oʻqib, tekshirib hosil qilingan bilim “bilig” yoki “ilm” deb ataladi. “Bilig” hozir eskirgan. Lekin ilm ham ma’rifatga nisbatan cheklangandir. Chunki ilm hosil qilganda oʻrganilayotgan narsaning hamma jihatini bir yoʻla bilib boʻlmaydi. Oʻsha suvni oladigan boʻlsak, uning tarkibi, bu tarkibning boʻlaklarga ajralishi va boʻlaklarning qoʻshilib bir butun holga kelishi bor; suvning bir holatdan ikkinchi holatga oʻtishi, uning boshqa narsalarga qoʻshilish, qoʻshilmasligi va uning oʻzga narsalarga ta’siriyu ulardan ta’sirlanishi bor; yana suvning qayerda va qaysi holda bor boʻlishi, undan qachon va qanday iste’mol qilinishi va yana boshqa jihatlari bor. Mana shu jihatlarning biri haqidagi bilim “ilm” va uni bilgan kishi “olim” deyiladi. Lekin bu ham ma’rifat emas. Bor ilmlar asosida hosil boʻlgan teran bilim ma’rifat boʻladi. Ma’rifat oʻrganilayotgan narsaning va u haqdagi ilmning nima uchun kerakligi hamda nima natija berishini bilishni ham qamrab oladi. Shunga binoan “ma’rifat” soʻzi butun borliqning nimaligini bilish va shu haqdagi bilimga nisbatan ham qoʻllanadi. Bunday ma’rifatga ega boʻlgan kishi “orif” deb ataladi. Ammo oʻqish va oʻqitishda “ma’rifat” deganda har bir kishining inson darajasida yashashi uchun zarur boʻlgan bilimlar yigʻindisi tushuniladi. Mana shu ma’nodagi ma’rifat bilan bogʻliq boʻlgan ishlar “maorif” deb ataladi. Elga ma’rifat tarqatuvchi kishi “ma’rifatchi”, maorif xizmatchisi “maorifchi”, deyiladi. Rus tilidan oʻzbek tiliga “ensiklopediya” soʻzi oʻzlashmasidan avval shu ma’noda “doiratul maorif” soʻzi qoʻllangan. “Ensiklopediya” soʻzining ham “sikl” qismi “doira” degani.

Ma’rifat har bir kishiga uning inson darajasida yashashi uchun kerak dedik. Buni qanday tushunish kerak? Buni anglash uchun biz inson hayotini hayvon hayoti bilan qiyoslashimiz lozim. Hayvon nafas olishdan tashqari yeb-ichsa va juftlashsa boʻldi. Uning hamma harakati mana shu ikki talabni qondirishga qaratilgan boʻladi. U ma’rifatga, hunar yoki san’atga muhtoj emas. Hayvondagi mazkur talablar “jismoniy” deb ataladi. Chunki ularni qondirish hayvonning jisman tirik yurishini va oʻz navini davom ettirishini ta’minlaydi. Insonda ham bu jismoniy talablar bor, lekin unda faqat insonga xos boʻlgan ma’naviy talablar ham bor. Agar kishi faqat jismoniy talablarni qondirish bilan cheklansa, uning hayoti hayvoniy darajadan yuqori koʻtarilmaydi. U oʻz hayotini insoniy darajaga chiqarib olishi uchun ma’naviy oziq olishi kerak. U buni qancha koʻp olsa, uning insoniyligi shuncha yuksak boʻladi. Ma’rifat ma’naviyatga kiradi va u kishining saodatga erishishini, ma’rifatli kishilar esa jamiyatning ravnaqini ta’minlaydi.

* * *

Aziz soʻzsevar, soʻzshunosu soʻzchilarning soʻziga qaraganda, soʻz xususida soʻz koʻp. Soʻz siriyu san’ati soʻzchi sehriyu saltanatin yaxshi bilgan ulugʻ Navoiy:

Soʻz guharigʻa erur oncha sharaf,
Kim, boʻla olmas anga gavhar sadaf,

degan. Demak, har bir soʻzga gavhardan quticha qilib saqlansa, shunda ham uning qiymatiga yarasha ish qilinmagan boʻlar ekan. Bunda hech qanday mubolagʻa yoʻq. Bu soʻzga berilgan haqiqiy baho. Tirik jonning hayoti uchun havo qanchalik zarur boʻlsa, insonning inson sifatidagi turmushi va uning insoniyligini belgilovchi ma’naviy tirikligi uchun soʻz shunchalik zarurdir. Bir nafas havoning oʻrnini dunyodagi barcha javohir bosolmaganidek, bir soʻzning vazifasini xazina-xazina oltinlar bajarolmaydi. Soʻz qiymatiga emas, qadrga ega, qadrli narsalarning ahamiyatini moddiy boylik bilan baholab boʻlmaydi.

Vatanimizning kelajagiga mas’ul yoshlarimiz, qoʻldoshu izdoshlarimiz soʻz bilmay hech bir maqsadga yetib boʻlmasligini, uning ma’nosiga ahamiyat bermay, doʻstu dushman niyatini anglash mumkin emasligini, soʻz husnini his qilmay, dunyo ne’matlaridan toʻliq lazzat ola bilmaslikni yaxshi bilmaklari va oʻz ona tillarini mukammal oʻrganmaklari lozim.

Shu bilan, aziz kitobxon, nutqingizga husnu rivoj tilab, xayrlashamiz. Noma tamom.

**Alibek RUSTAMOV,**
**filologiya fanlari doktori,**
**akademik**

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-1246.
34211 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Malohat Mingboyeva

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

OʻzA yakuni — 21:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05